

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK 821.512.137

RAZZAQOVA SUMBUL SHERMAT QIZI

O‘ZBEK TILIDA FALERONIMLAR

5 A 120102 - Lingvistika (o‘zbek tili)

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

Ilmiy rahbar:

dots. O‘. Rajabov

Urganch-2020

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. O‘ZBEK TILI FALERONIMLARINI LISONIY TADQIQ QILISHNING NAZARIY MASALALARI.....	9
1.1-§. Faleronimlar tadqiqi va dolzarb vazifalar	9
1.2-§. Faleronimlarning lisoniy maqomi va onomastik ko‘lamdagi o‘rni.....	13
II BOB. FALERONIMLARNING LISONIY TASNIFI HAMDA TAHLILI.....	19
2.1-§. Faleronimlarning mavzuiy-semantik guruhlari.....	19
2.2-§. Faleronimlarning zamoniylilik jihatdan turlari.....	34
2.3-§. Faleronimlarning atalish motiviga ko‘ra turlari	38
III BOB. FALERONIMLARNING TARKIBIY TAHLILI.....	43
3.1-§. Faleronimlarning morfologik tarkibi va struktural modellari	43
3.2-§. Faleronimlarda grammatik vositalarning qo‘llanishi.....	52
3.3-§. Faleronimlar tarkibida qo‘llanuvchi indikatorlar.....	56
XULOSA.....	64
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	66

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ilm fanida atoqli otlarni ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, etnografik axborotlarni tashuvchi milliy-lisoniy birliklar sifatida o'rganishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Orden, medal, faxriy unvon va ko'krak nishonlari nomlari bo'lgan faleronimlar ham falsafa, tarix, madaniyatshunoslik va boshqa fanlar tomonidan ana shunday muhim ijtimoiy ahamiyatga molik onomastik birliklar ekanligi e'tirof etilgan. Dunyo tilshunosligida makro va mikroko'lamga xos onomastik birliklarning leksik-semantik, nominatsion-motivatsion, derivatsion, struktural-tipologik, grammatik, leksikografik xususiyatlari tadqiqi borasida yuksak natijalarga erishilgan. Hozirgi globallashuv davriga kelib, barcha atoqli ot tiplarini, jumladan, faleronimlarni onomastikada erishilgan yutuq va tajribalar hamda yangi antropotsentrik paradigma asosida o'rganish muhim vazifaga aylandi. Ayniqsa, orden, medal, unvon, esdalik va ko'krak nishonlarning atoqli nomlarini tilshunoslik bilan boshqa fanlar integratsiyasi natijasida yuzaga kelgan lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, etnolingvistika aspektida o'rganish kun tartibiga qo'yildi.

Zamonaviy o'zbek tilshunosligi, xususan, onomastikasida istiqlol yillarida yirik ilmiy va amaliy ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, mifonim, ktematonim, agionim, nekronim, geonim, gemeronim, dokumentonim, oronim, patronim, pereytonim, speleonim, ekklezionim, ergonim, xrematonim kabi onomastik birliklar, jumladan, boy lisoniy, milliy-madaniy va etnik ma'lumotlarni tashuvchi faleronimlar lingvistik aspektida o'rganilmagan. Natijada o'zbek tili faleronimlarining lisoniy belgi-xususiyatlari, vazifalari va onomastik tizimdagi o'rni aniqlanmagan. «Mamlakatimiz tarixida o'chmas sahifa ochgan buyuk istiqlol tufayli O'zbekiston o'tgan davr mobaynida jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallab, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari dadil ilgarilab bormoqda. Ayniqsa, oxirgi yillarda siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarning mazmun-mohiyati, jamiyatimiz qiyofasi butunlay o'zgargani, bu ijobiy o'zgarishlar yurtdoshlarimiz hayotida o'z ifodasini topayotgani, xalqimizning turmush

darajasini, ong-u tafakkuri, bilim va madaniyatini oshirish bo'yicha qilingan ishlarni konkret dalil va misollar, chuqur ilmiy tahlillar va ekspertlik baholari orqali mamlakatimiz va xalqaro jamoatchilikka yetkazish muhim ahamiyatga ega»¹. Joriy yilning 23-mart kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan (III va IV darajali "Sog'lom avlod uchun" ordenini ta'sis etish to'g'risida"gi hamda "Sog'lom avlod uchun" medalini ta'sis etish to'g'risidagi qonunlar qabul qilingan edi va 24-mart kuni Senat tomonidan ma'qullangan edi. Biroq ushbu qonunlar prezident tomonidan imzolanmasdan qaytarilgan. Keyinchalik parlament quyi palatasining 5-may kuni bo'lib o'tgan majlisida mazkur qonun loyihalari "Salomatlik ordenini ta'sis etish to'g'risidagi" "Sog'lom turmush medalini ta'sis etish to'g'risidagi" degan yangi nomlar bilan qabul qilindi. "Sog'lom avlod uchun" ordeni bilan kishilar onalik va bolalikni muhofaza qilishdagi, sog'lom avlodni kamol toptirish uchun eng yaxshi moddiy sharoit va axloqiy muhitni ta'minlashdagi alohida xizmatlari uchun mukofotlanadilar. "Salomatlik" ordeni bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, aholi salomatligini yaxshilash hamda ushbu sohada xalqaro hamkorlikni mustahkamlashdagi alohida xizmatlari uchun mukofotlanadi. "Sog'lom turmush" medali bilan esa aholi orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qo'shgan hissasi uchun sog'liqni saqlash muassasalari shofokorlari, OAV vakillari va blogerlar, fuqarolar, namunali oilalar va sportchilar va boshqa shaxslar mukofotlanadilar.

Bunday qonunchilikdagi Davlat mukofotlarining qayta nomlanishi tarixda juda kam uchraydi, deyarli uchramaydi deyish ham mumkin. Demak, faleronimimlarning nomlanishi, ya'ni ularga nom berish nafaqat lingvistik, balki qonunda belgilangan rasmiy hodisa sanaladi. Eng so'nggi ta'sis etilgan mukofotlar "Mehr-saxovat" ko'krak nishoni va "Faxriy murabbiy" ordenining nomlanishida ham bu hol yaqqol namoyon bo'ladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma sakkiz yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida»gi qarori // Xalq so'zi, 2019, 9.07.
– B.1.6

Shunga ko‘ra, o‘zbek tili faleronimlarining tadqiqiga doir mazkur dissertatsiya dolzarblik kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-sonli “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari; 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli” Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-sonli “O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ilmiy natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida orden, medal, faxriy unvon, ko‘krak va esdalik nishonlar jamiyat va millat ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ma’naviy takomilidagi o‘rni, nomlanishi, variantlari, mavzuiy guruhlar falsafa, madaniyatshunoslik, san’atshunoslik, psixologiya fanlari, jumladan, tilshunoslikning onomastika sohasi aspektida A.V.Superanskaya, N.V.Podolskaya,

V.Kamianets , M.Qojanuli kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan¹.

Umuman, jahon, jumladan, rus ilm-fanida faleronimlar tadqiqi borasida yaxshi natijalarga erishilgan. Biroq N.Uluqovning maqolasini e'tiborga olmaganda, o'zbek tili faleronimiyasi lingvistik aspektda o'rganilmagan².

Tadqiqotning maqsadi o'zbek tili faleronimlarining lisoniy xususiyatlari hamda onomastik birliklar bilan munosabatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: tarixiy asarlar, badiiy asarlar va boshqa manbalardan o'zbek tili faleronimlarini to'plash; faleronimlarning onomastik ko'lamda tutgan o'rni, lisoniy maqomi hamda boshqa onomastik birliklar bilan munosabatini aniqlash; faleronimlarning umumiy hamda farqli, xususan, o'zaro bog'liqlik xususiyatlarini belgilash; faleronimlarning semantik, xronologik, struktural tasnifini berish; o'zbek tili faleronimlari sirasidagi ijtimoiy, madaniy va lisoniy takomillashuvlarni sotsiolingvistik aspektda tahlil qilish; o'zbek xalqining alohida xizmatlari uchun taqdirlovchi orden, medal, faxriy unvon, esdalik va ko'krak nishonlarilarining leksik-semantik, tarixiy-etimologik, etnolingvistik va lingvokulturologik xususiyatlarini yoritish.

Tadqiqotning obyekti tarixiy manbalardan mustaqil izlanishlar jarayonida to'plangan va O'zbekiston Respublikasida ta'sis etilgan orden, medal, faxriy unvon, ko'krak nishoni va har qanday mukofot nomlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti. O'zbek tili faleronimlarining nominatsion-motivatsion, leksik-semantik, onomastik, tarkibiy tahlili ishning predmeti hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, statistik, leksik-semantik, nominatsion-motivatsion, etimologik, lingvokulturologik, sotsiolingvistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

¹ Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. М., 1973. Б. 204; Подольская Н.В. Словар русской ономастической терминологии. М.,1988.Б.140; Kamianets V. Zur Einteilung der deutschen eigennamen. Iwan-Franko-Universitat.2000.Б.52-53;Kojanuli M. Kazak onomastikasindagi faleronim bag'itiiy turali birer so'z. Tiltanim. 2016.Б.16-17.

²Uluqov N.M. Faleronimlar xususida.O'zbek tili va adabiyoti. 2011. №5.- Б.79-82.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: faleronimlarning onomastik ko‘lamda tutgan o‘rni, lisoniy maqomi hamda boshqa onomastik birliklar bilan munosabati, ular doirasidagi o‘zaro o‘tishlar (onomastik konversiya va transonimizatsiya) aniqlangan; faleronimlarning umumiy hamda farqli, xususan, o‘zaro bog‘liqlik xususiyatlari dalillangan; o‘zbek tili faleronimlari sirasidagi ijtimoiy, madaniy va lisoniy takomillashuvlar sotsiolingvistik aspektda asoslangan; o‘zbek tili faleronimlarining lingvokulturologik xususiyatlari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat: faleronimiya bo‘yicha to‘plangan materiallar, ularning tadqiqi natijasida chiqarilgan xulosa va talqinlar hozirgi o‘zbek tilshunosligi, xususan, onomastikasi uchun eng muhim zaruriy, ilmiy ma’lumot berishi, o‘zbek tili onomastikasi bo‘yicha tadqiqotlar yaratishda manba bo‘lib xizmat qilishi, leksikologiya, onomastika, tarix, etnografiya, etnologiya, madaniyatshunoslik, lingvokulturologiya fanlarini o‘qitishda amaliy jihatdan yordam berishi asoslangan; faleronimiya bo‘yicha to‘plangan materiallar izohli, lingvokulturologik lug‘atlarga material hamda manba sifatida xizmat qilishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlilga tortilgan materiallar o‘zbek tili tabiatidan kelib chiqqan holda, xulosalar qilish imkonini berganligi, ularning asoslilik, metodologik mukammalligi, shuningdek, qo‘yilgan masalalarning aniqligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati o‘zbek tili onomastikasini faleronimlar haqidagi ilmiy qarashlar bilan boyitadi. Tadqiqot xulosalari va tadqiq usullaridan boshqa onomastik birliklarni lingvokulturologik, etnolingvistik aspektda o‘rganishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning materiallari, natija va xulosalari o‘zbek onomastikasiga oid darslik va qo‘llanmalar yozishda, oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek tili faleronimikasi bo‘yicha maxsus kurslar, shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida atoqli otlar, xususan, orden, medal,

mukofot nomlariga doir mavzularni o'qitishda manba va material vazifasini bajaradi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 2ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 70 sahifani tashkil etadi.

I BOB. O‘ZBEK TILI FALERONIMLARINI LISONIY TADQIQ QILISHNING NAZARIY MASALALARI

1.1-§.Faleronimlar tadqiqi va dolzarb vazifalar

O‘zbek tilining onomastik tizimi miqdoran g‘oyatda ko‘pqirrali, hajman ulkandir. Alohida mualliflarning tadqiqotlari, ilmiy to‘plamlar va ilmiy konferensiyalar materiallarida onomastik birliklarning ellikka yaqin turi keltirilgan. Tadqiqotlarda tilga olinadigan, ammo alohida tadqiqot obyekti bo‘lmagan onomastik birliklarga dokumentonim, xrononim, xrematonim qatorida faleronim ham kiritilgan.

Dastlab “faleronim” atamasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu so‘z lotincha phalera-“mard, jasur legionerlar ko‘krak nishoni” va onoma-“nom” so‘zlaridan tarkib topgan.

“Falera” so‘zi harbiy nishon sifatida antik adabiyotda uchraydi. XIX asrning 2-yarmi XX asrning boshlarida bir qator tadqiqotchilar, ayniqsa Germaniya olimlarining sa‘y harakatlari tufayli falera atamasiga qadimiy Rim ko‘krak nishoni sifatida qarashlar paydo bo‘lgan. Xorijiy ensiklopedik lug‘atlarda va bir qator axborot nashrlarida falera mukofot atamasining muqobili sifatida tilga olinadi. Bazi G‘arb tilshunoslarining ayrim tadqiqotlarida falera atamasi xuddi shu ma’noda uchraydi. Jumladan, 1888-yilda Sankt-Peterburgda nemis tilidan rus tiliga tarjima qilingan F.R.Lyubkerning “Klassik qadim zamonlarning haqiqiy lug‘ati”da falera atamasi mukofot ma’nosini anglatgan. Yuqoridagi ikkala holatda ham hozirgi faleronimlarning ajdodlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar ancha kam. Chunki faleralar to‘g‘risida “qadimgi Rimda harbiy ko‘krak nishon bo‘lib xizmat qilgan metall, tosh yoki shishali bezak” degan tushuncha doirasidan chetga chiqilmagan.

Faleristika atamasini ilk bor 1937-yida chex kolleksioneri va mukofotlar bo‘yicha tadqiqotchi Oldrijx Pilts muomalaga kiritgan. Biroq shu davrdagi Chexoslovakiyadagi tarixiy shart-sharoit bu atamaning ilmiy tarixiy leksikada mustahkamlanishiga imkon bermagan. Keyinchalik o‘tgan asrning 50-60-yillarida ushbu atama juda keng tarqaldi. Xususan, Kurt Kleytman rahbarligida G‘arbiy Berlindagi Ordenshunoslik ilmiy instituti nashri hisoblangan “Ordenshunoslik”

jurnali, fransus tilidagi “Orden va ko‘krak nishonlar kolleksionerlari uchun Yevropa jurnali” ta’sis etidi. Nihoyat 1973-yilda A.V.Superanskaya “Atoqli otlarning umumiy nazariyasi” asarida faleronim so‘zini onomastik termin sifatida qo‘lladi. Superanskayaning fikricha, faleristika-bu tarixiy fanlarning yosh sohasi bo‘lib, orden, medal, ko‘krak nishonlarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. A.V.Superanskaya atoqli otlarni nomlanayotgan obyektga ko‘ra uch guruh ajratib tasnif qiladi va faleronimlarni uchinchi guruh-kompleks obyektlarning atoqli oti sifatida sanab o‘tadi. Superanskaya Rossiyada ordenga nisbatan medal ancha oldin paydo bo‘lgani haqida yozadi. Dastlabki medal sifatida Ivan Grozniy davridagi “Zolotaya grivna” “Oltin halqa” medalini, dastlabki orden sifatida esa Pyotr I tomonidan ta’sis etilgan “Andrey Pervozvanniy” ordenini qayd qilib o‘tadi¹.

Keyinchalik 1988-yilda rus tilshunosi N.V.Podolskaya “Rus onomastik terminologiyasi lug‘ati” da faleronimlar tarkibiga orden,medal,ko‘krak nishoni bilan birga, Superanskayadan farqli ravishda, unvon va turli mukofotlarning nomlarini ham kiritadi².

2000-yilga kelib, nemis olimi Volodimir Kamianets “Nemis tilida atoqli otlarning turlarga bo‘linishi” deb nomlangan maqolasida faleronim atamasiga to‘xtalib, Superanskaya va Podolskayadan farqli ravishda, orden, medal, mukofotlar qatorida “propria” ya’ni diniy unvon nomlarini ham uning tarkibiga kiritadi³.

2007-yilda Ernst Begmatov va Yashnarbek Avloqulovlarning “O‘zbek tili onomastikasining makroko‘lami tarkibi” maqolasida ham faleronimlarga qisqacha izoh berib o‘tilgan⁴.

Faleronim – har qanday orden, medal, ko‘krak nishonlari, tojlar va shu kabilarning atoqli oti. Yuqoridagi qarashlardan farqli ravishda faleronimik birliklarga tojlar nomlari ham kiritilgan.

¹ Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. М., 1973. Б. 204.

² Подольская Н.В. Словар русской ономастической терминологии. М.,1988.Б.140.

³ Kamianets V. Zur Einteilung der deutschen eigennamen. Iwan-Franko-Universitat.2000.Б.52-53.

⁴ Begmatov E. Avlaqulov Y. O‘zbek tili onomastikasining makroko‘lami tarkibi.O‘zbek tili va adabiyoti.2007. №5.Б.35-36

2011-yilda filologiya fanlar doktori, professor N.M.Uluqov “Faleronimlar xususida” maqolasi bilan ilk bora o‘zbek onomastikasida faleronimlarni tadqiq qildi. U ilmiy maqolasida faleronimlarni qo‘llanish doirasiga ko‘ra ikki guruhga ajratdi¹ :

1. Xalqaro miqyosdagi faleronimlar (Nobel mukofoti, Olimpiada oltin medali)
2. Ma’lum davlat miqyosidagi faleronimlar (“Amir Temur” ordeni, “Shuhrat” medali)

Faleronimlarni shakli va turiga ko‘ra esa beshta guruhga ajratdi:

1. Davlatning oliy mukofotlari
2. Orden nomlari
3. Medal nomlari
4. Faxriy unvon nomlari
5. Esdalik va ko‘krak nishon nomlari

2016-yilda esa qozoq tilshunosi filologiya fanlari nomzodi, dotsent M.Qojanuli “Qozoq onomastikasidagi faleronimlar” to‘g‘risidagi maqolasida birinchi marta qozoq tilidagi faleronimlarni tadqiq qildi va faleronimik terminlar qatoriga ramzlar va emblemalarni ham kiritdi. U o‘z maqolasida Qozoqiston Respublikasida ta’ sis etilgan orden, medal nomlariga to‘xtalib, asosan, universitet emblemalari nomlarini sharhlab o‘tgan².

Biz ushbu tadqiqotimizda orden, medal, ko‘krak nishoni, faxriy unvon, nominatsiya va mukofotlarning nomlarini faleronim sifatida o‘rganishni maqsad qilib qo‘ydik. Tadqiqot davomida faleronimlarni mavzuiy-semantik, atalish motivi va tarkibiy tahlili bo‘yicha tadqiq qilishni ham oldimizga maqsad qildik.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat mukofotlari to‘g‘risida” qonunining yangi tahriri 2018-yil 11-aprelda tasdiqlangan. Qonunda mustaqillikdan keyin ta’ sis etilgan 34ta faxriy unvon, 12ta orden, 5ta medallarning nomi keltirilgan. Shu bilan birga, hozirda yurtimizda 30dan ortiq esdalik va ko‘krak nishonlari nomlari

¹ Uluqov N.M. Faleronimlar xususida. O‘zbek tili va adabiyoti. 2011. №5.- B.79-82.

² Kojanuli M. Kazak onomastikasidagi faleronim bag‘itiiy turali birer so‘z. Tiltanim. 2016.B.16-17.

mavjud. Ammo ushbu qonundan keyin ham bugungi kungacha ko‘plab yangi orden, medal va faxriy unvonlar ta’sis etildi.

Masalan, 2020-yilning 9-iyunida ta’sis etilgan “Faxriy murabbiy” ordeni yangi faleronimdir. Ushbu faleronim tarkibiga ko‘ra murakkab faleronim, birikma shaklida, morfologik tarkibi – “sifat+ot”, atalish motiviga ko‘ra kasb-hunar leksikasi bilan bog‘liq faleronim hisoblanadi.

Bu orden bilan yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, ularni yot g‘oyalardan asrash, yosh avlod vakillarida faol fuqarolik pozitsiyasi va mafkuraviy immunitetni, tashabbuskorlik, fidoyilik va axloqiy fazilatlarni shakllantirishga hissa qo‘shgan O‘zbekiston fuqarolari mukofotlanadi.

Demak, o‘zbek tilidagi faleronimlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofotlarining nomlaridir. O‘zbek xalqining shonli tarixi, insonlarning fidoyiligi, jasorati va buyuk xizmatlarini e’zozlashni, qadrlashni o‘zida ifoda etuvchi faleronimlarni o‘rganish o‘zbek tilining teran ildizlarini chuqurroq anglab yetishimiz uchun bir manba bo‘lib xizmat qiladi.

1.2-§. Faleronimlarning lisoniy maqomi va onomastik ko‘lamdagi o‘rni

O‘zbek tilshunosligida onomastik birliklarni belgilash, ularni tadqiq qilish darajasini 4 turga bo‘lish mumkin¹:

1. Onomastika sohasida nisbatan qoniqarli tadqiq qilingan onomastik birliklar antroponim, zoonim, oronim, oykonim, eronim va etnonimlardir.
2. Onomastika sohasiga ma’lum, ammo kam tadqiq etilgan onomastik birliklarga astronim(kosmonim), astionim, ktematonim, urbonimlar kiradi.
3. Tadqiqotlarda tilga olinadigan, ammo alohida tadqiqot obyekti bo‘lmagan onomastik birliklarga dokumentonim, demononim, faleronim, xrononim, xrematonim kabilar kiradi.

1. Dokumentonim – xalq tarixi uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lgan hujjatlar nomi.
2. Xrononim – tarixiy davrlar, bosqichlarning atoqli oti.
3. Demononim – iblis, shayton, jin kabilarga berilgan maxsus nomlar.
4. Faleronim – orden, medal, faxriy unvon, esdalik va ko‘krak nishon nomlari.
5. Xrematonim – xalq tarixi, madaniyati uchun ahamiyatli bo‘lgan noyob qurollar, asbob-uskunlar, san’at va musiqa asarlarining bir donasiga berilgan atoqli ot.
4. Onomastik birliklarning ba’zi tiplari mavjud bo‘lsa-da, ular deyarli izohlanmagan va tahlil qilinmagan: anoykonim, anemonim, artionim, agionim, stratonim, spleonim va b.

Tilning onomastik ko‘lami deb yuritilayotgan umumiy tushuncha ya’ni superko‘lam, o‘z navbatida, o‘z navbatida bir qator makroko‘lam, mikroko‘lam va ko‘lamchalarning o‘zaro ichki bog‘liqligi va munosabati hamda mana shunday murakkab xususiyatlarning o‘ziga xos tizimidan iborat bo‘lgan ko‘p qirrali lisoniy hodisadir. Albatta, onomastik ko‘lamlarni belgilash-asosiy mezon, ya’ni atoqli otning nominativ-vazifaviy xususiyatidan kelib chiqadi, ammo mana shu xususiyat, ehtiyoj konkret onomastik birliklarning yaratilishiga asos bo‘ladi. Bu birliklar so‘z tiplaridan biri – atoqli ot sifatida o‘ziga xos lisoniy material, lug‘aviy

¹ Begmatov E. Avlaqulov Y. O‘zbek tili onomastikasining makroko‘lami tarkibi. O‘zbek tili va adabiyoti. 2007. №5. B. 35-36

birlikdir. Lugʻaviy birlik esa til boyligi, unga mansub hodisadir. Atoqli ot tiplarining yirik makroguruhleri, mayda mikroguruhleri va yanada mayda guruhchalari oʻzaro munosabatda boʻladi, biri ikkinchisidan tashkil topadi, biri ikkinchisini paydo qiladi, toʻldiradi. Onomastik makrokoʻlamlar oʻzining tuzilishi va tarkibiga koʻra ikki xil xarakterga ega: 1) davomli, yaʼni yordamchi koʻlamlarga boʻlinmaydigan makrokoʻlamlar; 2) yordamchi koʻlamlarga boʻlinadigan makrokoʻlamlar.

Onomastik superkoʻlam tarkibiga kiruvchi oʻz navbatida, boshqa yordamchi koʻlamlarga boʻlinmaydigan makrokoʻlamlarga quyidagilar kiradi: teonimiya, dignitonim, fitonim, xrononim, anemonim, xrematonim, politonim, ergonim, faleronim, stratonim, dignitonim, geortonim va xrononim. Davomli, yaʼni yordamchi koʻlamlarga boʻlinmaydigan makrokoʻlamning chegarasi onomastik birlik boʻlmish konkret atoqli otga borib taqaladi va boshqa guruhlarga boʻlinmaydi. Bu holda makrokoʻlam termini makrokoʻlamni ham, uni tashkil qiluvchi atoqli otni ham anglatadi ¹. Masalan, faleronim:1) faleronim makrokoʻlaminin nomi; 2) oʻsha makrokoʻlamga kiruvchi mukofotlarning (orden, medal, koʻkrak nishoni va b.) atoqli oti.

Onomastikaga oid terminologik lugʻatlarda har qanday orden, medal, faxriy unvon, koʻkrak nishon va mukofotlarning atoqli otlari faleronimlar deb yuritiladi².

Tildagi faleronimlar majmui, yigʻindisi faleronimiyani tashkil etadi. Tildagi faleronimiyani, yaʼni faleronimlar makrokoʻlamini tadqiq etuvchi soha faleronimika deb yuritiladi. Oʻzbek tili onomastikasida faleronimlar maxsus toʻplanmagani, tadqiq etilmagani bois faleronimika sohasi oʻrganadigan masalalar ham belgilanmagan.

Faleronimika tilning faleronimik koʻlami bilan bogʻliq quyidagi masalalarni:

¹ Avloqulov Y. Tildagi onomastik birliklarning tiplari xususida. Til va adabiyot taʼlimi. 2018. №11. B.25-26

² Podolskaya N.V. Slovar russkoy onomasticheskoy terminologii. – M.: Nauka, 1988. – S.48 ; Begmatov E., Uluqov N. Oʻzbek onomastikasi terminlarining izohli lugʻati. – Namangan, 2006. – B.24.

- 1) Orden, medal, ko'krak nishonlarining atoqli oti – faleronimlarning paydo bo'lishi va shakllanishi bilan bog'liq lisoniy, nolisoniy omillarni;
- 2) faleronimik indikatorlarning lisoniy xususiyatlari va faleronimlar tarkibidagi vazifasini;
- 3) faleronimlarning tarixiy va zamonaviy shakllarini hamda ulardagi lisoniy o'zgarishlarni;
- 4) faleronimlarning lug'aviy-ma'noviy xususiyatlarini;
- 5) faleronimlarning tuzilishi va derivatsion modellarini;
- 6) faleronimlarning boshqa onomastik birliklar bilan munosabati va bundagi vazifaviy o'tishlarni;
- 7) faleronimlarning fonetik, leksik, uslubiy variantlarini;
- 8) faleronimlarning nominatsion-motivatsion xususiyatlarini;
- 9) faleronimlarni tasniflash bilan bog'liq ilmiy va amaliy masalalarni;
- 10) faleronimik lug'atlar tuzish tamoyillarini o'rganishi lozim.

Faleronimika tadqiq obyekti, predmeti, maqsadi va vazifasiga ko'ra onomastikaning ilmiy yo'nalishi sifatida tilshunoslikning til tarixi, leksikologiya va boshqa bo'limlari bilan uzviy aloqada ish olib boradi.

Faleronimlarning lisoniy tadqiqi ularni lisoniy jihatdan mukammallashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Faleronimlar nominativ funksiyadan tashqari quyidagi lisoniy vazifalarni ham bajaradi:

1. Faleronimlar o'zida ma'lum bir tarixiy davrdagi mukofotlar haqidagi informatsiya va axborotlarni yig'ish, jamlash, umumlashtirish, to'plash, ifodalash, saqlash va uzatish bilan informatsion, axborot ifodalash vazifasini bajaradi.

Tumon tug'i va chortug' faleronimining ma'nosi - bayroqning ikki xili yoki amirlarning darajasini bildiruvchi uchi o'tkir nayza.

O'n ikki amirdan qaysi biri dushman favjini sindirsa yoki g'anim qo'li ostidagi biror mamlakatni fatx etsa uni taqdirlab, agar birinchi darajali amir bo'lsa, ikkinchi darajali, ikkinchi bo'lsa, uchinchi darajali, uchinchi bo'lsa, to'rtinchi darajali amir martabasini bersinlar. Shu yo'sinda birinchi darajali

amirga bitta tug‘, ikkinchisiga – ikkita ,uchinchisiga – uchta, to‘rtinchisiga – to‘rtta tug‘ va nog‘ora berib,ularni tumontug‘ va chortug‘ olish martabasiga yetkazib rag‘batlantirsinlar¹.

Amir Temur davrida amirlar ko‘rsatgan jasoratlari uchun hozirgidek orden, medallar bilan emas, bayroq, nog‘ora va nayzalar bilan mukofotlangan, shu tariqa ularning darajasi oshgan. Mukofotlar amirlarga hadya qilingan narsa-buyumlarga nisbat berilib, shunday atalgan. Demak, bu o‘rinda faleronim ma‘lum bir tarixiy davrdagi ya‘ni Amir Temur hukmronligi davrida xalqning dushmanga qarshi jasoratlarini, erk yo‘lidagi kurashni va uning maqsad-mohiyati haqidagi axborotlarni ifodalaydi.

2. Faleronimlar ma‘lum bir tarixiy bosqichdagi mukofotlar haqidagi bilimlarni kelgusi avlodga yetkazishga xizmat qilishi bilan kumulyativ vazifa ham bajaradi.

Tanho- saroy xizmatchilari, lashkarboshilar va askarlar uchun maxsus xazinadan beriladigan maosh; ba’zida alohida xizmat ko‘rsatgan beklarga tanho sifatida yersuv berilgan. *Hukm qildimki, amir-ul umarolar o‘z maoshlarini devonbegi va vazirlarning tasdig‘i bilan olsinlar. Davlat tomonidan beriladigan butun maoshlarning to‘liq ma‘lumotlarini devonbegi va vazirlar avval menga bildirib, so‘ngra tanho bersinlar².*

3. Faleronimlar orden, medal, faxriy unvon, esdalik va ko‘krak nishonlari nomi sifatida milliy-madaniy funktsiya ham bajaradi.

Masalan, “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda xorijiy davlatlarning fuqarolari fan va texnikani, iqtisodiyot va madaniyatni rivojlantirishdagi katta xizmatlari, davlatlararo hamkorlikni rivojlantirishga hamda O‘zbekistonning xalqaro obro‘cini oshirishga qaratilgan ichki va tashqi siyosatni amalga oshirish ishiga sezilarli hissa qo‘shganliklar uchun mukofotlanadi.

“Madaniyat va san‘at fidokori” ko‘krak nishoni bilan mamlakatda madaniyat va san‘at sohasini rivojlantirish, o‘zbek milliy madaniyati va san‘ati nufuzini jahon

¹ Temur tuzuklari .T.1991. B.82

² Temur tuzuklari.T.1991.B.71

miqyosida oshirish, yosh iste'dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida fidokorona mehnat qilgan va yuqori natijalarga erishgan fuqarolar taqdirlanadi.

Yuqorida keltirgan faleronimlarning shunday nomlanishining o'zi ham yurtdoshlarimizni o'zbek milliy madaniyati nufuzini jahon miqyosida oshirishda fidokorona mehnat qilishga va yuqori natijalarga erishishga undaydi.

4. Faleronim muayyan ordenni, medalni ikkinchisidan farqlash, ajratish bilan differensiatsiyalash (farqlash) funksiyasini bajaradi. Masalan, «*Amir Temur*» ordeni bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari davlatchilikni mustahkamlashdagi ulkan xizmatlari, me'morchilikni, ilm-fan, adabiyot va san'atni, shu jumladan harbiy mahoratni rivojlantirishga qo'shgan ulkan hissalar uchun mukofotlanadilar. «Jaloliddin Manguberdi» ordeni bilan mamlakatimiz mustaqilligini, Vatan sarhadlarini himoya qilishda qahramonlik ko'rsatgan harbiy xizmatchilar mukofotlanadilar.

Mukofotlar o'zbek xalqining milliy g'ururi bo'lgan mard va jasur tarixiy shaxslar – Amir Temur va Jaloliddin Manguberdi nomlari bilan atalgan. Demak, lug'aviy asosiga ko'ra antropofaleronim. “Amir Temur” ordeni bilan harbiy, me'mor ilm-fan, adabiyot va san'at vakillari taqdirlanadi. “Jaloliddin Manguberdi” ordeni bilan esa faqat harbiy xizmatchilar taqdirlanadi. Bu esa ularning differensiatsiyalovchi (farqlovchi) funksiyasi hisoblanadi.

5. Faleronimlar umumlashtirish vazifasiga ham ega. Masalan, “O'zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 20 yil” esdalik nishoni bilan davlatimiz mustaqilligi, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy-ta'lim, madaniy, ma'naviy salohiyati va mudofaa qudratini mustahkamlash, uning sarhadlari xavfsizligi va daxlsizligini ta'minlash, mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiyalash, Vatanimizning munosib yosh avlodini tarbiyalash ishida fidokorlik namunalari ko'rsatayotgan ziyolilar, fan va san'at arboblari, ishchi va xizmatchilar, tadbirkorlar, fermerlar, mehnat faxriylari, harbiy xizmatchilar, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimlari va boshqa shaxslar taqdirlanadilar. “O'zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 20 yil” esdalik nishoni faleronimik birlik va bu mukofot bilan fan va

san'at arboblari, ishchi va xizmatchilar, tadbirkorlar, fermerlar, mehnat faxriylari, harbiy xizmatchilar, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimlari taqdirlanishi asosida umumlashtirish vazifasini bajargan.

6. Faleronimlar badiiy, publitsistik matnlarda his-tuyg'u, emotsiya, ta'sirchanlikni ifodalashga xizmat qilishi, badiiy timsollar sifatida qo'llanishi bilan estetik yoki ta'sir etish, ya'ni ekspressiv vazifa ham bajaradi. Faleronimlarni keltirish asosida insonlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy hayotdagi o'rni yoki darajasiga ishora qilinadi.

Masalan, – “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan..... Bu men. Meni chaqirishyapti. O'rnimdan turib, Prezidentimiz tomon yura boshladim. Yuryapmanmi, havoda suzyapmanmi, idrok qilolmasdim.Yonginamda o'tirgan, hozirgina qahramonlik Oltin Yulduzini olgan xorazmlik Masharip Quvoqov qo'limni qisib “Dim yaxshi so'zladingiz, gapni appardingiz, yoshulli”, dedi.(S.Ahmad “Yo'qotganlarim va topganlarim” asaridan)

Tadqiqotimiz davomida badiiy asarlarda asosan tarixiy faleronimlarning ko'p qo'llanganini aniqladik. Bu quyidagi misollarda yaqqol namoyon bo'ladi:

....kolxozimizning keksa a'zosi, Vatan urushining qatnashchisi Ikromjon Usmonov, Moskva ostonalaridagi janglarda ko'rsatgan mardligi uchun “Qizil Bayroq” ordeni bilan mukofotlangan edi.(S.Ahmad “Ufq” asaridan)

I I BOB. FALERONIMLARNING LISONIY TASNIFI HAMDA TAHLILI

1.1-§. Faleronimlarning mavzuiy-semantik guruhlari

Faleronimlar bu o'zbek tilidagi mukofotlarning nomlaridir. O'zbekiston Respublikasidagi mukofotlarni Davlat yoki qaysi tashkilot tomonidan ta'sis etilganiga qarab quyidagi mavzuiy-semantik guruhlarga ajratish mumkin:

I.Davlat mukofotlari nomlari:

- 1) *“O‘zbekiston Qahramoni” unvoni*
- 2) *O‘zbekiston Respublikasining faxriy unvonlari*
- 3) *O‘zbekiston Respublikasining ordenlari*
- 4) *O‘zbekiston Respublikasining medallari*
- 5) *O‘zbekiston Respublikasining faxriy yorlig‘i*

II. Davlat imtiyozli mukofotlari nomlari.

III. O‘zbekiston hukumatining mukofotlari nomlari.

- 1) *Esdalik nishonlar*
- 2) *Ko‘krak nishonlar*
- 3) *Faxriy nishonlar*

IV. Nominatsiya nomlari.

V. Idoraviy mukofotlar nomlari.

VI. Ijtimoiy tarmoqlardagi mukofotlar nomlari.

VII. Xalqaro mukofotlar nomlari.

I. Davlat mukofotlari nomlari:

- 1) *“O‘zbekiston Qahramoni” unvoni* faleronimi tarkibi birikma shaklida, apellyativ asosi ot so‘z turkumi ifodalangan. O‘zbekistonning oliy darajadagi unvonining nomidir. O‘zbekiston Respublikasining fuqarolariga davlat va xalq oldidagi xizmatlari qahramonona jasorat ko‘rsatish bilan bog‘liq xizmatlari uchun beriladi.

2) O‘zbekiston Respublikasining faxriy unvonlari nomlari. Faxriy unvon nomlari ham faleronimlar sirasiga kiradi. Faxriy – (arabcha hurmatli, sharaflı, muhtaram) – alohida xizmatlari uchun taqdirlash ma`nosini bildiradi¹.

Unvon – (arabcha adres, sarlavha, nom, belgi, ramz) omonimlik xususiyatiga ega bo‘lib, biror ish-faoliyat sohasidagi alohida xizmatni rasman e’tirof etadigan, vakolatli organlar tomonidan beriladigan nom².

Faxriy unvon – O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning alohida xizmatlarini yuksak e’tirof etish shakllaridan biri. Fuqarolarni mehnatdagi xizmatlari, samarali davlat, ijtimoiy va ijodiy faoliyatlari uchun ularni rag‘batlantirish maqsadida beriladi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga ko‘ra, davlat mukofotlari va unvonlarini ta’sis etish O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining mutlaq vakolatlari jumlasiga kiradi. O‘zbekiston Respublikasining malakaviy va faxriy unvonlarini O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti beradi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-yil 26-apreldagi qarori bilan O‘zbekiston Respublikasining quyidagi faxriy unvonlari ta’sis etilgan³:

Faleronimik birlik bo‘lgan faxriy unvonlarni o‘z ichida quyidagi mavzuiy - seman-tik guruhlariga ajratib tasnif qilish mumkin:

1. Sport sohasidagi faxriy unvonlar: *«O‘zbekiston iftixori», «O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sport ustozı», «O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sportchi» .*

«O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sport ustozı» faxriy unvoni Olimpiada va Osiyo o‘yinlarining, jahon, Osiyo chempionatlarining, birinchiliklarining, A guruhidagi boshqa xalqaro musobaqalarning, Olimpiada oldi o‘yinlari yoki nogironlar umumjahon chempionatlarining chempionlari va sovrindorlarini tayyorlagan, shuningdek jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishda alohida xizmat ko‘rsatgan sport ustozlariga beriladi.

2. Ilm-fan va ta’lim sohasidagi faxriy unvonlar: *«O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qıtuvchisi», «O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar*

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-jild.Toshkent.2006.335-bet

² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-jild.Toshkent.2006.288-bet

³ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild.Toshkent,2003.81-82b.

murabbiysi», «O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi», «O‘zbekiston Respublikasi xalq yozuvchisi» «O‘zbekiston Respublikasi xalq shoiri».

«O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi» faxriy unvoni olimlarga fan va texnika sohasidagi g‘oyat qimmatli asarlari, kashfiyot va ixtirolari uchun, Fan va texnikani rivojlantirishdagi, uning yutuqlarini targ‘ib va joriy etishdagi, respublika xalq xo‘jaligi uchun ilmiy kadrlar va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashdagi xizmatlari uchun beriladi.

«O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi» faxriy unvoni barcha turdagi umumta’lim maktablarining, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining, hunar-texnika bilim yurtlarining, maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari va maktabdan tashqari muassasalarning, o‘qituvchilar malakasini oshirish bilan shug‘ullanuvchi uslubiyat kabinetlari, kurslar va institutlarning respublika xalq ta’limini rivojlantirishda alohida xizmat ko‘rsatgan xodimlariga, shuningdek xalq ta’limi boshqa muassasalarining ana shunday xodimlariga beriladi.

3. Xizmat ko‘rsatish va servis sohasidagi faxriy unvonlar. Xizmatlar jamiyat hayotining muhim sohasi bo‘lib, hayot darajasini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Shuni hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishda alohida yutuqlarga erishgan fuqarolarimiz uchun bir qator faxriy unvonlar ta’sis qilingan. Xizmat ko‘rsatish sohasigi faxriy unvon nomlari ham o‘z ichida mavzu guruhlariga bo‘linadi:

3.1. Transport xizmatlari sohasidagi faxriy unvonlar: *«O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fuqaro aviatsiyasi xodimi»* faxriy unvoni havo transportini rivojlantirishda, zamonaviy aviatsiya texnikasini o‘zlashtirishda, aholiga va respublika xalq xo‘jaligiga namunal xizmat ko‘rsatishni tashkil etishda alohida xizmat ko‘rsatgan fuqaro aviatsiyasi xodimlari va mutaxassislariga beriladi.

«O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan transport xodimi» faxriy unvoni avtomobil, temir yo‘l, havo, daryo, shahar transporti, yo‘llar qurilishi va

ulardan foydalanish, o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari, loyiha tashkilotlarining, shuningdek boshqa transport korxonalarining respublika transportini rivojlantirishda, transport vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirishda, yo'llar qurish va ulardan foydalanishda alohida xizmat ko'rsatgan xodimlariga beriladi.

3.2. Aloqa va axborotlashtirish sohasidagi faxriy unvonlar: *«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan aloqa xodimi»* faxriy unvoni aloqa vositalarini rivojlantirish va takomillashtirishda, respublika xalq xo'jaligiga va aholisiga aloqaning barcha turlari bilan namunali xizmat ko'rsatish ishini tashkil etishda alohida xizmat ko'rsatgan aloqa xodimlariga beriladi.

3.3. Moliya va bank sohasidagi faxriy unvonlar: *«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan iqtisodchi»* faxriy unvoni xalq xo'jaligi barcha tarmoqlarining iqtisodiyotni yuksaltirishda alohida xizmat ko'rsatgan yuqori malakali iqtisodchilariga va buxgalteriya hisobi xodimlariga beriladi.

3.4. Maishiy va kommunal xizmat ko'rsatish sohasidagi faxriy unvonlar: *«O'zbekiston Respublikasida kommunal, maishiy va savdo sohasida xizmat ko'rsatgan xodim»* faxriy unvoni uy-joy kommunal xo'jaligi, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, birlashma, tashkilot va muassasalarining aholiga xizmat ko'rsatish ishini yaxshilashda alohida xizmat ko'rsatgan xodimlariga beriladi.

4. Madaniyat va san'at sohasidagi faxriy unvonlar: *«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi»* faxriy unvoni madaniy-ma'rifiy muassasalar, televidenie, radio, matbuot, nashriyotlar, tarix va madaniyat yodgorliklarini saqlash xodimlariga, shuningdek madaniyatni rivojlantirishda alohida xizmat ko'rsatgan shaxslarga beriladi.

«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan me'mor» faxriy unvoni milliy me'morchilikni, shaharsozlikni rivojlantirishda, zamonaviy fuqarolik, sanoat va qishloq me'morchilik majmualari, binolari va inshootlari yaratishda, shuningdek respublikada me'morchilik yodgorliklarini ta'mirlash sohasida xizmat ko'rsatgan yuqori malakali me'morlarga beriladi.

«*O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist*» faxriy unvoni respublikada san’atni rivojlantirishda, respublikada ijodiy kadrlarni tayyorlash va tarbiyalashda xizmat ko‘rsatgan teatr, kino, estrada, sirk, televidenie va radio eshittirish artistlari va rejissyorlariga, musiqa ijrochilari va ashulachilarga, baletmeysterlarga, orkestr va xor dirijyorlariga, musiqa va boshqa badiiy jamoalarning rahbarlariga beriladi.

«*O‘zbekiston Respublikasi xalq hofizi*» faxriy unvoni qo‘shiqchilarga yuksak ijrochilik mahorati, O‘zbekiston mumtoz musiqa merosini va musiqaviy-she’riy san’atning an’anaviy shakllarini o‘zlashtirganligi va rivojlantirganligi, faol targ‘ib qilganligi uchun beriladi.

«*O‘zbekiston Respublikasi xalq rassomi*» faxriy unvoni atoqli tasviriy san’at arboblari rang tasvir, grafika, haykaltaroshlik, amaliy–dekorativ, teatr va kino san’atini rivojlantirishdagi alohida xizmatlari uchun beriladi.

«*O‘zbekiston Respublikasi xalq ustasi*» faxriy unvoni xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’atni rivojlantirishda alohida xizmat ko‘rsatgan xalq ustalariga ularning milliy madaniyatni yanada rivojlantirish va iste’dodli yoshlarni tayyorlashga qo‘shgan hissalariga uchun beriladi.

«*O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti*» faxriy unvoni atoqli san’at arboblari teatr, musiqa, kino, estrada, sirk, televidenie va radio eshittirishni rivojlantirishdagi, respublikada ijodiy kadrlarni tayyorlash va tarbiyalashdagi alohida xizmatlari uchun beriladi.

«*O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi*» faxriy unvoni yuksak badiiy asarlar yaratgan, respublikada adabiyot va san’atni rivojlantirishda, ijodiy kadrlarni tayyorlash va tarbiyalashda xizmat ko‘rsatgan rejissyorlarga, bastakorlarga, dirijyorlarga, baletmeysterlarga, musiqa, xor, raqs va boshqa badiiy jamoalarning rahbarlariga, madaniyat va san’at o‘quv yurtlarining muallimlariga, rang tasvir, naqqoshlik, o‘ymakorlik, gilamdo‘zlik va xalq ijodiyotining boshqa turlarida yuksak asarlar yaratgan xalq ustalariga beriladi.

«*O‘zbekiston Respublikasi xalq baxshisi*» faxriy unvoni baxshichilik san’atini yanada rivojlantirishdagi, milliy qadriyatlarimizni e’zozlash va o‘zbek xalq og‘zaki

ijodiyotini keng targ'ib etishdagi, o'z ijodi va ijrochilik faoliyati bilan xalqimizni, ayniqsa yoshlarni ko'p ming yillik madaniyatimiz sarchashmalaridan bahramand qilishdagi hamda Vatan istiqloli va shon-sharafini ulug'lash yo'lidagi salmoqli hissalar uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga beriladi.

5. Qishloq xo'jaligi sohasidagi faxriy unvonlar: *«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan qishloq xo'jalik xodimi»* faxriy unvoni qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi sohasining, qishloq xo'jalik ilmiy-tadqiqot muassasalari va o'quv yurtlarining qishloq xo'jaligini rivojlantirishda alohida xizmat ko'rsatgan xodimlariga beriladi.

«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan pillachi» faxriy unvoni jamoa, aksiyadorlik, dehqon, ijara, shaxsiy va boshqa turdagi xo'jaliklarning, korxonalarning, o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot va tajriba muassasalarining pillachilikni rivojlantirishda alohida xizmat ko'rsatgan xodimlariga, shuningdek boshqa shaxslarga beriladi.

«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan chorvador» faxriy unvoni jamoa, aktsiyadorlik, dehqon, ijara, shaxsiy va boshqa turdagi xo'jaliklarning, shuningdek o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot va zooveterinariya muassasalarining, loyiha tashkilotlarining chorvachilikni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan xodimlariga beriladi.

6.Sanoat sohasidagi faxriy unvonlar: *«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi»* faxriy unvoni sanoat birlashmalari va korxonalarining, ilmiy-tadqiqot va loyiha-konstruktorlik muassasalarining respublika sanoatini rivojlantirishda alohida xizmat ko'rsatgan xodimlariga beriladi.

«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan irrigator» faxriy unvoni suv xo'jaligi, qurilish, loyiha, ilmiy-tadqiqot va boshqa tashkilotlarning suv xo'jaligi obyektlarini qurish hamda ulardan foydalanish bilan shug'ullanadigan va suv xo'jaligini hamda sug'oriladigan dehqonchilikni rivojlantirishda, shuningdek respublika tabiatini muhofaza etishda alohida xizmat ko'rsatgan xodimlariga beriladi.

«O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan ixtirochi va ratsionalizator» faxriy unvoni xalq xo‘jaligiga joriy etilgan va katta iqtisodiy samara bergan ixtirolar va ratsionalizatorlik takliflarining mualliflariga, shuningdek ixtirochilik va ratsionalizatorlikni rivojlantirishda, ixtirolar va ratsionalizatorlik takliflarini ishlab chiqarishga joriy etishda xizmat ko‘rsatgan shaxslarga beriladi.

«O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan quruvchi» faxriy unvoni qurilish, montaj va loyiha tashkilotlarining, ilmiy-tadqiqot va boshqa muassasalarning respublikada qurilishni va qurilish industriyasini rivojlantirishda alohida xizmat ko‘rsatgan xodimlariga beriladi.

3) O‘zbekiston Respublikasining ordenlari. Orden (lot. ordo — qator, daraja) metall nishon, taqdirlash belgisi, harbiy yoki fuqarolik xizmatlari uchun beriladigan faxriy mukofot. O‘zbekiston mustaqil respublikalar ichida birinchi bo‘lib o‘z orden va medallarini joriy etdi hamda ularni, shuningdek, turli esdalik va kolleksiya tangalarini o‘zida ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi¹. O‘zbekiston Respublikasida quyidagi ordenlar ta’ sis etilgan:

«Amir Temur» ordeni, «Sog‘lom avlod uchun» ordeni «Sog‘lom avlod uchun» ordeni ikki darajadan iborat : I darajali «Sog‘lom avlod uchun» ordeni; II darajali «Sog‘lom avlod uchun» ordeni, «Buyuk xizmatlari uchun», «Mustaqillik» ordeni «Jaloliddin Manguberdi» ordeni, «El-yurt hurmati» ordeni, «Fidokorona xizmatlari uchun» ordeni, «Mehnat shuhrati» ordeni, I va II darajali «Shon-sharaf» ordeni, «Do‘stlik» ordeni, «Mardlik» ordeni, «Salomatlik» ordeni, «Faxriy murabbiy» ordeni.

«Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda xorijiy davlatlarning fuqarolari fan va texnikani, iqtisodiyot va madaniyatni rivojlantirishdagi katta xizmatlari, davlatlararo hamkorlikni rivojlantirishga hamda O‘zbekistonning xalqaro obro‘ sini oshirishga qaratilgan ichki va tashqi siyosatni amalga oshirish ishiga sezilarli hissa qo‘ shganliklar uchun mukofotlanadi.

¹ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild.Toshkent ,2003.560-bet.

4) O‘zbekiston Respublikasining medallari. Medal (frans. medaille, lot. metallum — metall) — biror voqea, arbob yoki joy sharafiga chiqariladigan, odatda 2 tomoniga tasvir tushirilgan va (yoki) yozuvi bo‘lgan, ko‘pincha, doira, tuxumsimon yoki ko‘pburchakli shakldagi, har xil o‘lchovli metall nishon. Aksariyat hollarda oltin, kumush, bronzadan tayyorlanadi. Medal Qadimgi Rimdayoq ma’lum edi. Lekin medal yasash san’ati XIV-XV asrlarda boshlangan (Italiya, Vizantiya). Medal davlat yoki jamoatchilik mukofoti sifatida alohida xizmatlar, mardlik uchun, fan, madaniyat, sport sohasidagi katta yutuqlar uchun, yubiley sanalari munosabati bilan esdalik uchun, biron bir voqeadagi ishtirok etganlik uchun beriladi¹.

O‘zbekiston Respublikasining medallari quyidagilardan iborat: «Jasorat» medali, «Sodiq xizmatlari uchun» medali, «Kelajak bunyodkori», «Shuhrat» medali, «Ikkinchi jahon urushidagi g‘alabaning 70 yilligi» esdalik medal, «Yaponiya ustidan qozonilgan g‘alaba uchun» medali, «1941-1945-yillardagi Ulug‘ Vatan urushida Germaniya ustidan qozonilgan g‘alaba uchun», «1941-1945-yillardagi Ulug‘ Vatan urushidagi shavkatli mehnati uchun», «Mehnatdagi jasorati uchun», «Mehnatda o‘rnak ko‘rsatganligi uchun». «Jasorat» medali bilan O‘zbekiston Respublikasi harbiy xizmatchilari, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiyasining va ichki ishlar organlarining xodimlari respublikaning milliy xavfsizligini ta’minlash, jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashda, harbiy burchni yoki xizmat burchini ado etish vaqtida ko‘rsatgan mardlik va jasoratlari uchun mukofotlanadilar.

5) O‘zbekiston Respublikasining faxriy yorlig‘i bilan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari mamlakat mustaqilligini mustahkamlashga, tinchlik va barqarorlikni saqlashga, mamlakatning iqtisodiy, siyosiy, sotsial, ilmiy, ma’naviy salohiyatini hamda mudofaa qudratini oshirishga qo‘shgan hissasi uchun mukofotlanadilar.

II. Davlat imtiyozli mukofotlari nomlari - O‘zbekiston Respublikasining davlat va jamoat faoliyatlarida katta ishlar qilgan shaxslarga beriladi. Mukofotlar

¹ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild. Toshkent, 2003. 382-bet.

qonunda belgilangan imtiyozlarga ega. Davlat imtiyozli mukofotlariga quyidagilar kiradi:

O‘zbekiston Respublikasining fan va texnika, adabiyot, san‘at va me‘morchilik sohasidagi davlat mukofoti, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti, Nihol mukofoti, O‘zbekiston yoshlar ittifoqining mukofoti, Mard o‘g‘lon davlat mukofoti, Beruniy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi davlat mukofoti, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti, Kamoliddin Behzod nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti, Abdulla Qodiriy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti, Yosh mualliflarning eng yaxshi asarlari va ilmiy ishlanmalari uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti.

III. O‘zbekiston hukumatining mukofotlari nomlari – O‘zbekiston fuqarolariga alohida xizmatlari uchun beriladigan mukofotlarning atoqli nomlaridir. Ular O‘zbekiston Respublikasining orden va medallaridan farq qiladi va esdalik, ko‘krak, faxriy nishonlaridan iborat faleronimlarni tashkil etadi.

1) Esdalik va faxriy nishon nomlari. Nishon - (forscha –belgi, iz; muhr, tamg‘a; alomat; mo‘ljal; orden, medal;) omonimlik xususiyatga ega bo‘lib, orden va medal so‘zlari bilan bir ma’noda qo‘llanadi¹.

“Ikkinchi jahon urushidagi g‘alabaning 70 yilligi”, “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 10 yil” “O‘zbekiston Qurolli kuchlariga 15yil”, “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 20 yil” esdalik nishoni, “O‘zbekiston Qurolli kuchlariga 20 yil” , “O‘zbekiston Konstitutsiyasiga 25 yil” esdalik nishoni, “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 25 yilligi” esdalik nishoni.

“O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 20 yil” esdalik nishoni bilan davlatimiz mustaqilligi, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy-ta’lim, madaniy, ma’naviy salohiyati va mudofaa qudratini mustahkamlash, uning sarhadlari xavfsizligi va daxlsizligini ta’minlash, mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiyalash, Vatanimizning munosib yosh avlodini tarbiyalash ishida fidokorlik namunalarini ko‘rsatayotgan ziyolilar, fan va san‘at arboblari, ishchi va

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati.3-jild.Toshkent.2006.42-bet

xizmatchilar, tadbirkorlar, fermerlar, mehnat faxriylari, harbiy xizmatchilar, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimlari va boshqa shaxslar taqdirlanadilar.

2) Ko'krak nishonlari nomlari: *“O‘zbekiston belgisi”, “Inovatsion g‘oyalar yetakchisi”, “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi fidoiysi” , “Mehnatkash dehqon” , “Ilg‘or fermer” “Mo‘tabar ayol”, “Xalq ta’limi fidoiysi” , “Madaniyat va san’at fidokori”, “Uy- joy komunal xizmat ko‘rsatish a‘lochisi” , “Jismoniy tarbiya va sport a‘lochisi” “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar a‘lochisi”, “Soha iftixori” , “Soha a‘lochisi”, “Mahalla iftixori”, “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda qo‘shgan hissasi uchun”, “Huquqiy targ‘ibot ishlari uchun”, “Namunali tomorqachi”, “Ma’naviyat fidoiysi» ko‘krak nishoni.*

“Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda qo‘shgan hissasi uchun” ko‘krak nishoni bilan mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish, inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini, demokratik qadriyatlarni himoya qilish, aholining siyosiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o‘rtasida ijtimoiy sheriklik munosabatlarini mustahkamlash ishlariga munosib hissa qo‘shgan hamda jamiyatimizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda faol ishtirok etib kelayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari hamda tashabbuskor fuqarolar taqdirlanadilar.

“Mehr-saxovat” 2020-yil 26-mayda ta’sis etilgan bu ko‘krak nishon bilan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari jahon miqyosida keng tarqalib, global muammoga aylangan koronavirus pandemiyasi davrida, shuningdek, turli tabiiy ofatlar, favqulodda holatlar tufayli el-yurtimiz boshiga tushgan sinovli kunlarda mavjud xavf-xatarlarga qarshi kurashda, ularning oqibatlarini bartaraf etishda mardlik va jasorat namunasini ko‘rsatgani, xayriya va saxovat mablag‘larini to‘g‘ri va xolis yo‘naltirish, qiyin ahvolga tushgan aholiga o‘z vaqtida beminnat ko‘mak berishdagi tashabbuskorligi uchun mukofotlanadilar.

V.Nominatsiya nomlari

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, faleronimlar bu mukofot nomlaridir. Biz tadqiqotimizda nominatsiyalarni ham rag‘batlantirish, taqdirlash vositasi bo‘lgani

uchun faleronimik birlik sifatida qabul qildik. Musiqa, teatr, kino, estrada san'ati va sport bilan bog'liq nominatsiyalarning atoqli nomlari ham faleronimlardir. Istiqlool yillarida nominatsiya so'zining ma'no ko'lami va doirasi ham kengaydi. Nominatsiya nomlarini ifodalovchi faleronimlar ma'lum musiqa, raqs, qo'shiq, teatr, kino, estrada, san'ati va ma'naviy, milliy mukofotlarni nomlash, boshqalaridan farqlash, yashovchanligi va bardavomligini ta'minlash, reklama qilishi bilan lingvokulturologik, sotsiolingvistik va pragmalingvistik vazifalarni bajaradi.

O'zbek tilidagi nominatsiya nomlarini fodalovchi faleronimlarni leksik-semantik jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin.

I. Sport sohasidagi nominatsiya nomlari: "Yilning eng yaxshi yosh sportchisi", "Yilning eng yaxshi murabiyi", "Yilning eng yaxshi faxriy sportchisi", "O'zbekiston chempionatining eng yaxshi darvozaboni".

II. Fan-ta'lim sohasidagi nominatsiya nomlari: "Ilm-fan sohasini rivojlantirishdagi kuchli irodasi va matonati uchun", "Yilning eng faol maktab direktori", "Eng yaxshi professori", "Eng yaxshi dotsent", "Eng yaxshi ilmiy tadqiqotchi", "Yilning eng faol o'qituvchisi".

III. Jurnalistika sohasidagi nominatsiya nomlari: "Yilning eng faol jurnalisti", "O'zbek televideniyasi rivojiga qo'shgan hissasi uchun", "Madaniyat sohasining faol ommaviy axborot xodimi", "Yil teleradiojurnalisti".

IV. San'at sohasidagi nominatsiya nomlari:

1. Musiqa yo'nalishidagi nominatsiya nomlari: "San'at sohasidagi iqtidori uchun", "Yilning an'anaviy qo'shiqchisi", "Yil estrada xonandasi", "Yil sozandasi", "Yil opera ijrochisi".

2. Kino yo'nalishidagi nominatsiya nomlari: "Eng yaxshi hujjatli film", "Eng yaxshi aktrisa", "Eng yaxshi aktyor", "Yilning eng yaxshi filmi", "Eng yaxshi ssenariy", "Eng yaxshi kinobastakor".

3. Raqs yo'nalishidagi nominatsiya nomlari: "Eng yaxshi raqs jamoasi", "Eng yaxshi yakkaxon raqs ijrochisi", "Eng yaxshi sahnalashtirilgan raqs".

- 4. Arxitektura va haykaltaroshlik yo‘nalishidagi nominatsiya nomlari:** “Haykaltaroshlik yo‘nalishi rivojida tashabbusi uchun”, “Yilning eng yaxshi hunarmandi”, “Yilning eng yaxshi arxitektori”.
- 5. Tasviriy va amaliy san’at yo‘nalishidagi nominatsiya nomlari:** “Tasviriy san’at jonkuyari”, “Yil muzeyi xodimi”, “Yil madaniyat markazi”.
- V. Harbiy sohadagi nominatsiya nomlari:** “Eng faol profilaktika inspektori”.
- VI. Internet tizimidagi faoliyati bo‘yicha nominatsiya nomlari:** “Yilning eng faol ijtimoiy tarmog‘i”, “Oliy ta‘lim tizimi islohotlarini yoritib borgan eng yaxshi bloger”, “Tanlov kashfiyoti bo‘lgan bloger”, “O‘quvchilar e’tirofiga sazovor bo‘lgan bloger”.
- VII. Moliya va bank sohasidagi nominatsiya nomlari:** “Eng yaxshi kredit bo‘limi xodimi”, “Eng yaxshi korporativ boshqaruvchi”, “Eng yaxshi filial”, “Eng yaxshi boshqaruvchi”.
- VIII. Sog‘liqni saqlash tizimidagi nominatsiya nomlari:** “Yil shifokori”, “Yilning eng yaxshi hamshirasi”, “Yilning eng yaxshi shoshilinch tibbiy yordam xizmati hamshirasi”.
- IX. Tadbirkorlik va biznes sohasidagi nominatsiya nomlari:** “Yilning eng yaxshi tadbirkori” , “Yil investori”, “Xizmat ko‘rsatish sohasida eng yaxshi tadbirkor”.
- V. Idoraviy mukotlar nomlari** – jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat tashkilotlarning mukofotlari, korxona, muassasalarning o‘z xodimlariga beradigan mukofotlari nomlaridir. Idoraviy mukofotlar ayrim shaxslarni jamiyat hayotidagi salmoqli hissasini taqdirlash maqsadida ta‘sis etiladi (mas, O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi, rassomlar uyushmasi yoki boshqa jamoat birlashmalarining mukofotlari). Shunday qilib, har qanday sohaning vijdonli va taniqli xodimlarini rag‘batlantirish uchun vazirliklar va idoralar tomonidan tasqiqlanadigan tamg‘a, faxriy unvonlar kabi idoraviy mukofotlarning atoqli nomlari ham faleronimlardir. Bu guruhdagi faleronimlar ham turli xil tashkilot, birlashmalar yoki soha yo‘nalishlariga qarab nomlanishi bir-biridan farq qiladi.

Mas, Bank muassasalari o'rtasida quyidagi mukofotlar ta'sis qilingan: *"2018-yil kashfiyoti"*, *"Bank Expo 2010"*, *"2017-yilning eng aktiv emitenti"*, *"Oltin portfel"*, *"Trade award-2014"*, *"Tadbirkorlik subyektlari bilan faol ishlovchi bank"*, *"2018-yilning eng faol dileri" mukofotlari*.

"O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi idoralari xodimlarining darajali maxsus unvonlari to'g'risidagi nizomni va O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi idoralari xodimlarini rag'batlantirish va ularning intizomiy javobgarligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qarori qabul qilingan. Ushbu qarorga muvofiq, prokuratura xodimlarining quyidagi darajali maxsus unvonlari belgilanadi: *"Haqiqiy Davlat adliya maslahatchisi"*, *"1-darajali yurist"*, *"2-darajali yurist"*, *"Adliya katta maslahatchisi"*, *"Adliya kichik maslahatchisi"*.

O'zbekistonda jurnalistika sohasida "Oltin qalam mukofoti" ta'sis etilgan. *Oltin qalam mukofoti* faleronimi O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi va Jurnalistlarni qayta tayyorlash markazi qator tashkilotlar bilan hamkorlikda milliy va xalqaro jurnalistikaning eng yuksak yutuqlarini keng ommalashtirish, ommaviy axborot vositalari xodimlari fuqarolik pozitsiyalarini namoyon etishlari uchun keng sharoit yaratish, tanqidiy-tahliliy mushohada va ijodiy faoliyatga yangicha yondashadigan jurnalistlarga beriladi.

VI. Ijtimoiy tarmoqlardagi mukofotlar nomlari. Internet tizimidagi ijtimoiy tarmoqlarning ham o'z mukofotlari mavjud bo'lib, ularning atoqli nomlari ham faleronim hisoblanadi. Ushbu faleronimlar tarmoqlarda yaratilgan saytlarning rivojiga salmoqli hissa qo'shgan foydalanuvchilarni rag'batlantirish uchun beriladi. Ordenlarni har qaysi foydalanuvchi o'zi istagan foydalanuvchiga belgilangan tartibda berishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlardagi faleronimlarga quyidagi nomlarni misol tariqasida keltirish mumkin: "G'ayratli ishtirokchi" ordeni, "Charchamas ishtirokchi" ordeni, "Faol foydalanuvchi yulduzi" ordeni, "Ekzopedik" ordeni, "Yozuvchi" ordeni.

“Charchamas ishtirokchi” ordeni bilan “Bugungi kun tarixda” loyihasi doirasida yilning har bir kuni uchun sahifa yaratib chiqqan foydalanuvchilar taqdirlanadi.

VII. Xalqaro mukofotlar nomlari — xalqaro tashkilotlar, jamg‘armalar, xorijiy xususiy shaxslar tomonidan muayyan sohada olamshumul ahamiyat kasb etuvchi yutuqlarga erishgan kishilarni taqdirlash (pul yoki maxsus unvonlar, xalqaro grantlar berish) uchun ta’sis etiladi (mas, Nobel mukofoti, YUNESKO xalqaro mukofoti). O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ham xalqaro mukofotlar bilan taqdirlanadilar va shu tariqa mukofot nomlari tilimizda ham qo‘llana boshlaydi. Shu o‘rinda, birinchi yurtboshimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov faoliyati xalqaro darajada yuksak baholanib, quyidagi mukofotlar bilan taqdirlanganini misol tariqasida keltirishimiz mumkin:

“Mugunxva” ordeni (Koreya Respublikasi); “Italiya Respublikasi oldidagi xizmatlari uchun” Katta Xoch kavaleri ordeni (Italiya); “Altin iran” (Oltin burgut) ordeni (Qozog‘iston); Birinchi darajali “Dono Yaroslav” ordeni (Ukraina); “Ulug‘ Vitautas” ordeni (Litva); “Fuqarolik xizmatlari uchun” ordeni (Ispaniya); “Xizmatlari uchun” birinchi darajali ordeni (Polsha); “Oltin Runo” ordeni (Gruziya); “Stara Planina” ordeni (Bolgariya); “Xaloskor” ordeni” (Gretsiya); “Turkmenistanyn Hormatly il yasulusy” (Turkmaniston); “Uch yulduz” ordeni (Latviya); “Jasorat” prezident ordeni (Gruziya); Birinchi darajali “E’tirof xochi” ordeni (Latviya); “Magtymguly Adyndaky Halkara Bayragy” ordeni va “Maxtumquli” xalqaro mukofoti (Turkmaniston).

O‘zbekiston Respublikasining hozirgi kundagi prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham ko‘plab xalqaro mukofotlarning sohibi bo‘lgan. Masalan, 1-darajali Do‘stiq ordeni (Qozog‘iston), AQSH-O‘zbekiston savdo palatasining mukofoti, “Yevrosiyo oldidagi xizmatlari uchun” mukofoti, Osiyo jurnalistlar uyushmasining “Yil kishisi” mukofoti, “Turk dunyosini tiklashga qo‘shgan ulkan hissasi uchun” mukofoti, “Danaker” ordeni(Qirg‘iziston).

Yuqorida xalqaro faleronimlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, ularning ayrimlari o‘zbek tiliga tarjima qilingan, ayrimlari esa tarjimasiz holda qabul qilingan. Aslida

esa xalqaro faleronimlar antroponim yoki toponimga asoslangan bo'lsa ikkichi tilga tarjima qilinmaydi, aks holda tarjima qilinishi yoki izohi bilan berilishi lozim.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, o'zbek tilida xalqaro faleronimlarning tarjimasi to'g'ri, aniq, izohlangan shaklda qayd etilgan bir manba ishlab chiqish zarurati bor. Chunki, bunday manba ishlab chiqilmasa, tilimizda xalqaro faleronimlarning turli tarjima variantlari paydo bo'lishi va bu hol bir qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

2.2-§. Faleronimlarning zamoniylilik jihatidan turlari

Xalq, millat tilining tarixini, undagi rivojlanish, o'zgarishlarni hisobga olgan holda ma'lum davrlarga bo'lib tahlil qilish til tarixiga oiddir. Ammo onomastik tizimni davrlashtirish masalasi izchil an'anaga ega emas. Shunday bo'lsa ham, keyingi yillardagi onomastik tadqiqotlarda bu murakkab muammoga bag'ishlangan talqinlar, tasniflar uchraydi. Faleronimiya tarixini davrlashtirishda qanday lisoniy belgilarga tayanish kerakligini aniqlab, belgilab olish muhim. Masalan, umuman biror til taraqqiyotini davrlashtirishda u yo bu davrda til tizimidagi fonetik, morfologik, so'z yasalishi, leksikadagi o'zgachaliklar asos qilib olinadi. Faleronimlarni davrlashtirishda ham shunday belgilarga tayanish kerakmi? Faleronimiyani davrlashtirishda har qanday davrga xos siyosiy-iqtisodiy tuzum, tarixiy-ijtimoiy sharoitni hisobga olish kerak. Avvalo, siyosiy-iqtisodiy sharoit, xalqning madaniy-ma'naviy, etnik tasavvurlari o'zgaradi, bu muayyan davrning xususiyatlarini belgilaydi. Shu sababli faleronimiyani davrlashtirishda ijtimoiy-siyosiy hayotdagi madaniy-ma'rifiy qarashlar, etnik an'analardagi o'zgarishlarga tamoyil va omil bo'la oladi.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib, biz tadqiqotimizda faleronimiyani 2 davrga bo'lib tahlil qilishni ma'qul topdik.

1. Tarixiy faleronimlar (mustaqillikkacha bo'lgan davr).
2. Zamonaviy faleronimlar (mustaqillikdan keyingi davr).

Tarixiy so'zlar (istorizmlar). O'tmishga oid narsa, hodisalarni ifodalagan, biroq hozirgi tilimizda o'z sinonimiga ega bo'lmagan so'zlardir. Faleronimlar tarkibida istorizmlar uchraydi, lekin arxaizmlar kuzatilmaydi. Mustaqil tadqiqotlarimiz davomida "Temur tuzuklari" asaridan tarixiy faleronimik birliklarni aniqladik. Quyidan misol tariqasida shulardan bir nechtasini keltirib o'tamiz:

O'tog'a – Bosh kiyimiga taqiladigan, ukpar va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan ziynatli belgi. *Sipohiylardan chiqqan bahodirlar, dovyuraklarga maxsus faxrli o'tog'a, kamar va tarkash taqdim etib, martabalarini ko'tardim.*

Suyurg'ol – (eski o'zbekcha)- in'om, sovg'a, marhamat; O'rta asrlarda qo'shin boshliqlari, ko'zga ko'ringan saroy shoirlari, yirik mansabdorlar, yirik musulmon

ruhoniylari va shu kabilarga davlat oldida ko'rsatgan katta xizmatlari evaziga xon va podsholar tomonidan qilinadigan turli-tuman in'om; yer-suv, kiyim-kechak, mol-u mulk va boshqalar. ...*Ravshan dinga rivoj berishda qo'llagan birinchi tuzugim shu bo'ldiki, sayyidlar orasidan layoqatli bittasini ahli islomga sadr etib tayinladim. U sayyidlar, ulamo, shayxlar va boshqa diniy arboblarga suyurg'ol belgilab, har birining vazifasini tayin qilsin, dedim.*

Mandil- bosh kiyimi, salla, ro'molcha, yog'lig'. Hukmdorlar biron kimsaga o'z bosh kiyimini, kamarini, choponini taqdim etish orqali, unga bo'lgan cheksiz hurmatini bildirganlar. ...*Men ham uning ko'nglini ovlab, boshiga mandilimni qo'ydim. So'ngra bu kishi o'z og'a-inilari bilan menga mulozim bo'lishdi.*

Yuqorida qayd etib o'tilgan "Temur tuzuklari" asaridan aniqlangan faleronimlar Amir Temur hukmronligi ya'ni O'rta asrlar davriga xos birliklardir. Ular istorizm hisoblanadi, chunki bugungi kunda ushbu faleronimlar tilimizda ite'molda emas, sinonimi ham yo'q va moddiy jihatdan ham o'tmishga (kamar, chopon, salla, yog'lig'...) oiddir.

Tarixiy faleronimiya tarkibiga XX asrda sho'rolar davrida paydo bo'lgan nomlarni ham kiritish mumkin. Chunki bu davrda yaratilgan sho'rolar mafkurasini ifodalovchi faleronimlar bugungi kunda iste'moldan chiqqani barchamizga ma'lum. Masalan, "Lenin" ordeni, "Qahramon ona" ordeni, "Trudovaya slova" "Za trudovaya doblest".

Zamonaviy faleronimlar – O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyingi davrdagi ta'sis etilgan mukofot nomlaridir. Zamonaviy faleronimlarga orden, medal, faxriy unvon, ko'krak nishonlari, mukofotlar va nominatsiyalar nomlari kiradi.

Til tizim sifatida uzluksiz harakatda, rivojlanishda bo'lib turadi, bu uning ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqadi: til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur o'rtasida ikki tomonlama aloqadorlik ularning bir-biriga ta'sirini belgilaydi – jamiyatda bo'lib turadigan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, iqtisodiy va ma'rifiy sohalardagi islohotlar tilning lug'at boyligida yangi-yangi so'z atamalarining

yuzaga kelishini taqozo qiladi. Bu jarayon tilning lugʻat boyligida neologizmlarni yuzaga keltiradi.¹.

Oʻzbek tilida muayyan sharoitlar taqozosi, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi madaniy sohadagi oʻzgarishlar, fan va texnikada erishilayotgan eng soʻnggi yutuqlar taʼsirida hamisha yangi-yangi leksemalar yaʼni neologizmlar hosil boʻladi. Zamonaviy faleronimik birliklar tarkibida ham neologizmlar mavjud, garchi tadqiqotimiz obyekti boʻlmasa ham, faleronimlar tarkibida uchraydigan yangi soʻzlarga ayrim mulohazalar bildirish lozim deb topdik.

Hayot va turmushning barcha qirralarida sodir boʻlayotgan yangiliklar birinchi galda leksikada oʻz ifodasini topadi, yaʼni paydo boʻlgan har bir yangilik yangidan-yangi soʻzlar bilan ifodalana boshlaydi. Faleronimik birlik tarkibida ham bir qator neologizmlar oʻz ifodasini topgan: *“Oliy taʼlim tizimida islohotlarni yoritib bergan eng yaxshi bloger”*, *“Xalq taʼlimi tizimidagi muammolar va ularning yechimlari tahlil qilingan eng yaxshi blogpost”*, *“Yil investori”*, *“Eng faol profilaktika inspektori”*, *“Eng yaxshi korporativ boshqaruvchi”*.

Ushbu faleronimlar tarkibidagi **bloger, blogpost, investor, inspektor, korporativ** kabi soʻzlar oʻzining yangilik boʻyogʻi bilan ajralib turadi.

Fan va texnikaning turli sohalariga oid baynalmilal atamalarining aksariyati jahon tillarining aksariyatida ancha ustuvor holda qoʻllanib kelayotgan boʻlishiga qaramay, ularga oʻzbekcha muqobil topishga harakat qilishni ijobiy holat deb boʻlmaydi. Buni ikki holat bilan izohlash mumkin. Birinchidan, har qanday atama maʼlum bir sohadagi tushunchani ifodalash uchun qoʻllanar ekan, u oʻsha fanning kommunikativ birligi hisoblanadi. Ikkinchidan har qanday fan dunyoviy boʻlib fanni milliylashtirish nooʻrindir. Qator atamalar borki, ular tushunchalar bilan birga kirib kelgan boʻlib, ularni almashtirish axborot almashishni chalkashtirib, turli qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Maʼlumki, bir atamani almashtirishda eng asosiy mezon ularning muqobili shu soʻz anglatayotgan barcha maʼnolarni qoplashi va terminologik talablarga javob berishi kerak². Faleronimlar tarkibida ham shunday

¹ Jamolxonov H.A. Hozirgi oʻzbek adabiy tili, 2-qism, -T.: ToshDPU, 2004. -67 b.

² Oʻzbek tili atamashunosligi//Axborot 13-14 chiqaruv. T.: Fan, 2002. -B. 11

atamalar borki, ularni o‘zbekcha muqobiliga almashtirish ijobiy natija bermaydi. Fikrimizni quyidagi misollar bilan dalillashimiz mumkin: “Alternativ energiya manbalaridan foydalanishni eng yaxshi targ‘ib qilgan bloger”, “Media informatsiya savodxonligi va fuqarolik jurnalistikasiga qo‘shgan hissassi uchun”, “Eng yaxshi filial”, Yilning eng yaxshi taekvondochisi”, “2018-yilning eng faol dileri”, “O‘zbekiston Respublikasining faxriy donori” kabi faleronimik birlik bo‘lgan nominatsiya nomlari tarkibidagi **alternativ, media, informatsiya, filial, taekvondo, diler, donor** kabi yangi atamalarning qo‘llanganini ijobiy hodisa sifatida qabul qilish mumkin.

2.3-§.Faleronimlarning atalish motiviga ko‘ra turlari

Nominatsiyaning umumnazariy masalalari va tiplarini o‘rganishda rus tilshunosligida yaratilgan ikkita katta hajmli to‘plamlar alohida ahamiyatga ega. “Языковая номинатция” deb nomlangan to‘plamda nominatsiyaning lingvistik mohiyati, gnoseologik asoslari, mantiqiy va estetik tomoni, lingvistik nominatsiyaning tipologiyasi, nomlanishning semantika va semasiologiya kabi sohalari bilan aloqadorligi nazariy yo‘nalishda tadqiq qilingan¹.

Ikkinchi to‘plam nominatsiya turlariga bag‘ishlangan bo‘lib, ilk nominatsiya, ikkinchi, uchinchi tip nominatsiyaning xususiyat va usullarini, nominatsiya va matn, nominatsiya va so‘z munosabati kabi muammolarni o‘rganishga bag‘ishlangan.²

Nominatsiya muayyan asos (motiv)ga tayanadi. Nomlash, qanday nomlash, nom uchun qanday vositani olish, buning nolingvistik va lingvistik asoslari va boshqalar nom uchun asos bo‘lgan motivga bog‘liqdir.

Motiv – lotincha motivus so‘zidan olingan bo‘lib, tilshunoslikda, xususan, onomastikada biror narsa, hodisa yoki obyektни nomlash uchun sabab, asos bo‘lgan belgi xususiyatni anaglatadi³.

Faleronimlarning atalish motivlariga ko‘ra guruhlanishi eng zarur tasniflardan hisoblanadi. Chunki bunda faleronimlarni lug‘aviy-ma‘noviy jihatdan tasniflash bo‘yicha aytilgan fikrlar e‘tiborga olingan holda to‘plangan materiallar ilmiy tahlil qilinadi.

Faleronimlarni atalish motiviga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratib tahlil qilish mumkin:

Antroponimlarga asoslangan faleronimlar. Barcha tillarda jumladan o‘zbek tilida mukofotlarni mashhur allomalar, mard va bahodir tarixiy shaxslar nomlari bilan atash an‘anasi keng tarqalgan. Bunday mukofot nomlari antropofaleronimlardir. Antropofaleronimlar kishi nomlari –antroponimlarning

¹ “Языковая номинатция”(Общие вопросы). – М. Наука,1977. –359 с.

² “Языковая номинатция”(Виды номнатции). – М.: Наука, 1977. – 359 с.

³ Begmatov E.,Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. – Namangan, 2006. – B.48.

transonimizatsiya usulida mukofot nomiga o'tishi mahsulidir: antroponim> faleronim > antropofaleronim¹.

Keyingi yillarda ulug' ajdodlarimizning tarixiy merosini o'rganish ,buyuk allomalar nomini abadiylashtirish borasida ko'pgina ishlar amalga oshirildi. Xususan, xalqimizning shon-u shavkatini jahonga tanitgan va milliy g'ururimiz timsoli bo'lgan shaxslar nomi faleronimlarning ham atalish motivlariga asos bo'lganini kuzatishimiz mumkin. Masalan, *“Jaloliddin Manguberdi” ordeni, “Amir Temur” ordeni, Abu Rayhon Beruniy nomidagi davlat mukofoti, Alisher Navoiy nomidagi davlat mukofoti, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti, Kamoliddin Behzod nomidagi davlat mukofoti.*

Kasb-hunar leksikasi bilan bog'liq faleronimlar. O'zbek tilidagi faleronimlarning katta qismini kishining kasb-hunari asosida paydo bo'lgan nomlar tashkil qiladi. O'z kasbining mohir ustasi bo'lish bilan birga, Vatanimiz ravnaqiga katta hissa qo'shayotgan fuqarolarimizni taqdirlash maqsadida Davlat mukofotlari, ayniqsa, faxriy unvon nomlari tarkibida kasb, hunar, mashg'ulot leksikasiga oid so'zlarni ko'p uchratishimiz mumkin. Masalan, *«O'zbekiston Respublikasi xalq shoiri», «O'zbekiston Respublikasi xalq baxshisi», «O'zbekiston Respublikasi xalq yozuvchisi», «O'zbekiston Respublikasi xalq rassomi», «O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi», «O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi», «O'zbekiston Respublikasi xalq hofizi», «O'zbekiston Respublikasida kommunal, maishiy va savdo sohasida xizmat ko'rsatgan xodim», «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan aloqa xodimi», «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist», «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi», «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist», «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan irrigator», «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan ixtirochi va ratsionalizator», «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan iqtisodchi», «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi», «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan me'mor», «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan paxtakor», «O'zbekiston Respublikasida xizmat*

¹ Uluqov N.M. Faleronimlar xususida. O'zbek tili va adabiyoti. 2011. №5.- B.79-82.

ko'rsatgan pillachi», «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi», «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sog'liqni saqlash xodimi», «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport ustoz», «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi», «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan transport xodimi», «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fuqaro aviatsiyasi xodimi», «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi», «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan chorvador», «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist», «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan qishloq xo'jalik xodimi», «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan quruvchi».

Yuqorida keltirilgan faleronimik birliklarda *shoir, yozuvchi, usta, baxshi, rassom, o'qituvchi, hofiz, artist, murabbiy, jurnalist, irrigator, ixtirochi, ratsionalizator, iqtisodchi, me'mor, paxtakor, pillachi, sportchi, chorvador, yurist, quruvchi, aloqa xodimi, sanoat xodimi, sog'liqni saqlash xodimi, transport xodimi, fuqaro avatsiyasi xodimi, xalq ta'limi xodimi, qishloq xo'jalik xodimi* kabi kasb-hunar atamallari ishtirok qilgan.

Metaforik asosda nomlangan faleronimlar. Metafora asosida nomlangan faleronimlarda so'zlar majoziy ya'ni ko'chma ma'noda ifodalangan bo'ladi. O'zbek tilida ham ko'chma ma'noda nomlangan faleronimlar uchraydi. Masalan, yosh xonandalar uchun ta'sis etilgan "*Nihol*" mukofoti ham metaforik asosda nomlangan. Nihol – forscha yangi o'tqazilgan, o'stirilgan, daraxt; qalamcha ya'ni yosh novda yoki ko'chat ma'nolarini ifodalaydi. Bu yerda nihol appelyativi metofora asosida yangi san'at sohasidagi iqtidorli, iste'dodli yoshlarga qiyoslash ma'nosini ifodalaydi.

Shu o'rinda, "*Oltin qalam*" mukofoti ham bunga misol bo'la oladi. Oltin – sariq-qizg'ish tusli qimmatbaho nodir metal; zar, tilla. Lekin bu yerda *oltin* so'zi o'z ma'nosida emas, ko'chma ma'noda qo'llangan. Bu mukofot milliy va xalqaro jurnalistikada katta yutuqlarga erishgan ommaviy axborot vositalari xodimlariga beriladi.

Geortofaleronimlar. Geortofaleronimlar bayram nomlari – geortonimlarning transonimizatsiya usulida mukofot nomiga o'tishi mahsulidir: geortonim> faleronim> geortofaleronim. Bayramlar nomiga qo'yilgan orden, medal nomlari: «Mustaqillik» ordeni, «Mustaqillik» ko'krak nishoni kabilar.

Jonsiz narsa-buyumlar oti asosida nomlangan faleronimlar. Tilimizda jonli va jonsiz narsalarni bildiruvchi otlar narsa otlaridir. Faleronimlarning apellyativ asosi turli narsa-buyum otlari bilan ifodalanishi mumkin. Ammo faleronim doim apellyativ asosga teng bo'lavermaydi. Faleronimik tizimga o'tgach, apellyativ yasovchi negiz turli o'zgarishlarga uchraydi. Ya'ni apellyativ asosning avvalgi ma'nosi unutiladi va tamomila yangi ma'nolarni ifodalaydi. Masalan, "Nihol" mukofoti faleronimida nihol yosh novda, daraxt ma'nosini yo'qotib, o'sib kelayotgan yangi san'at vakillarini taqdirlash uchun mukofot nomi funksiyasini bajaradi. Buni quyidagi xususiyatlarda yorqin ko'rish mumkin:

- 1.Nihol leksemasi faleronim vazifasiga ko'chgach, u endi o'simlik nomi emas, mukofot nomi – atoqli otga aylandi.
- 2.Nihol so'zi turdosh ot sathi birligi emas, atoqli ot sathi birligiga aylandi.
- 3.Nihol leksemasining tabiatida sifatiy o'zgarishlar yuz beradi. Bu uning ma'nosida, funksional vazifasida, ekspressiv xususiyatlarida, estetik-imkoniyatlarida namoyon bo'ladi.

Shu o'rinda faleronimlar orasida jonsiz buyumlar bilan nomlangan faleronimik birliklar quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

Masalan, "Oltin Yulduz" medali "O'zbekiston Qahramoni" unvoni bilan taqdirlangan shaxslarga topshiriladi. Ushbu faleronim tuzilishi birikma holida bo'lib, oltin va yulduz so'zlari o'z ma'nosida qo'llangan. Ya'ni bu medal oltin qotishmasidan tayyorlangan sakkiz qirrali yulduz shaklida yasalgan. Demak, bu faleronimga lug'aviy asos qilib yulduz ya'ni narsa oti asos qilib olingan.

"Oltin qalam" faleronimi tuzilishi birikma holida bo'lib, oltin va qalam so'zlari ko'chma ma'noda qo'llangan. Aslida Oltin qalam mukofoti eng yaxshi jurnalistik material uchun ommaviy axborot vositasi xodimlariga beriladi. Bilamizki, "qalami o'tkir" iborasi yozuvchi, shoir va jurnalistlar uchun ham qo'llanadi. Ya'ni bunda

qalamning o'z ma'nosidagi o'tkirligi emas, yozuvchining, jurnalistning mahorati nazarda tutiladi. Ushbu faleronimda ham ko'chma ma'nolilik asosida appelyativ narsa otlari bilan ifodalangan.

III BOB. FALERONIMLARNING TARKIBIY TAHLILI

3.1-§. Faleronimlarning morfologik tarkibi va struktural modellari

Faleronimlar ham o'zbek tilining lug'aviy boyligi bo'lgani uchun bu tilning tuzilishi, yasash qonuniyatlariga bo'ysunadi. Faleronimlarning tuzilish qoliplari, bir tomondan, faleronim uchun asos bo'lgan apellyativning xususiyatiga, ikkinchi tomondan, faleronimlarning o'ziga xos xususiyatlariga asoslanadi. Faleronimik tuzilma(struktura) bilan unga asos bo'lgan apellyativ strukturaning to'la mos kelmasligini apellyativda mavjud bo'lgan ba'zi grammatik shakllarni obrazli ot strukturasiga taalluqli bo'lmasligi, balki uning tarkibida nofunktsional, qotgan lisoniy element sifatida saqlanishi ham tasdiqlaydi. Masalan, do'stlik, mardlik singari faleronimlar tarkibidagi -lik qo'shimchasi faleronimik tizimning hosilasi emas apellyativ negizda avval mavjud bo'lgan ko'rsatkichlardir. Shu sababli ham ko'pincha atoqli otlar o'zak va yasovchi morfemalarga, fonetik va morfemik strukturaga bo'linmasdan yaxlit bir so'z tarzida talqin etib kelinadi: Atoqli otni va uning turdosh otdan farqini belgilash hozirga qadar, asosan, butun so'z sathida olib borildi. Shu sababli ko'pgina ishlarda kichikroq sathlar ham doimo hisobga olinavermaydi. Shu sababli atoqli otni tashkil qilgan unsur(element) tahlil qilinmaydi, mavjud ishlarning aksariyatida atoqli otga bir butunlikka ega so'z sifatida qaraladi.

Mana shunday fikr bildirishga qaramasdan A.V.Superanskaya ham toponimlar ikki qismdan tashkil topadi deb hisoblaydi: negiz va formant: "atoqli otning tuzilishi haqida so'z borganda, asos va formantlar haqida gapirilishi kerak. Chunki, nom asosi tarkibiga kiruvchi old qo'shimchalar, o'zak va suffikslar, odatda, atoqli otlikkacha bo'lgan yasashga tegishlidir. Atoqli ot tarkibiga ular tayyor asos sifatida kirgan¹. Demak, toponim negiz va formantdan iborat bo'lar ekan.

Z.Do'simov A.V Superanskayaning tildagi umumiy leksika va maxsus leksika qarashlariga² suyangan holda shunday yozadi: "Demak leksema va toponimni bir qatorga qo'yib bo'lmaydi. Chunki umumiy leksika kishining jamiyatidagi

¹ Суперанская А.В Структура имени собственного С. 12-13

² Суперанская А.В Апеллятив онома // Имя нарицательное и собственное. М.: Наука 1978. С. 5-6.

aloqaning barcha sohalarida qatnashadi. Maxsus leksika esa funksional doirasi, lisoniy funksiyasi chegaralangan leksikadir. Demak toponimlarning yasamaligi haqida gapirilganida toponimlikkacha va toponimlik davridagi ma'noni hisobga olish lozim bo'ladi. Toponimiyada hosil qiluvchi hosila orasida munosabat toponimik va toponimiklikkacha bo'lgan ma'nolarda ifodalanadi"¹. U toponimlarni lisoniy tarkibiga qarab uchga bo'ladi: appellyativ toponimlar, formantli toponimlar, affiksoidli toponimlar.

A.Otajanova xorazm etnotoponimlarini Z.Do'simov qarashlariga suyanan holda appellyativ asosli nomlar, formantli nomlar, indikatorli nomlarga bo'ladi"². Tadqiqotchi apellyativ asosli nomlar deb hech qanday qo'shimchasiz sof lug'aviy strukturali toponimlarni tushunadi. Ammo o'sha yerning o'zida "apellyativ asosli nomlar tarkibidagi ayrim tarixiy affikslar" tahlil qilingan.

O'zbek tilidagi faleronimlarni lisoniy tuzilishiga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin.

1.Bir komponentli(sodda) faleronimlar

2.Ko'p komponentli(murakkab) faleronimlar

Dastlab sodda faleronimlarning semantikasiga kengroq to'xtalamiz. Faqat bir so'zdan iborat sodda faleronimlar mavjud bo'lib, ular hech qanday grammatik forma olmay yaxlit bir so'z holida qo'llanadi. Bunda apellyativ yaxlit leksema holatida faleronim vazifasiga o'tadi. Apellyativ atoqli otga o'tgach, bir qator xususiyatlarga (bosh harf bilan yozilishi va shu kabi) ega bo'ladi. Masalan, shuhrat (apellyativ) "Shuhrat" (faleronim) medali, jasorat (apellyativ); "Jasorat" (faleronim) medali.

Bir komponentli faleronimlarni o'z ichida sodda tub va sodda yasama faleronimlarga ajratish mumkin. Masalan, "Jasorat" medali (sodda tub), "Mardlik" ordeni, Do'stlik" ordeni (sodda yasama).

Ko'pchilik tadqiqotlarda sodda tarkibli atoqli otlarga sintaktik usul bilan yasalgan (qo'shma so'z shaklidagi) nomlar ham kiritilgan va ularning so'z

¹ Дусимов З. Историко-лингвистический анализ топонимии Хорезма: Автореф. Дис. ... докт.филол.наук.Тошкент 1986. С.26

² Otajanova A. Xorazm etnotoponimlari . Toshkent : Fan,1997. 78-85-betlar.

birikmasidan farqli tomonlari sanab oʻtilgan. A.Hojiyev yozadi: “Shuni aytish kerakki, soʻzlarni sintaktik usul bilan biriktirish deganda, birdan ortiq soʻzning maʼlum grammatik qonun-qoidalari asosida oʻzaro bogʻlanishi tushuniladi. Soʻzlarning maʼlum grammatik qonun-qoidalar asosida oʻzaro aloqaga kirishuvidan hech vaqt qoʻshma soʻz hosil boʻlmaydi, balki hamma vaqt soʻz birikmasi hosil boʻladi. Ana shunday soʻz birikmalari til taraqqiyoti jarayonida maʼlum davrlar oʻtishi bilan semantik, grammatik va fonetik jihatdan bir butun holga kelishi, yaʼni qoʻshma soʻzga aylanishi mumkin. Soʻzlarni grammatik qonun-qoidalar asosida oʻzaro aloqaga kirishuvidan soʻz birikmasi hosil boʻlishi bilan shu birikmaning qoʻshma soʻzga aylanishi tamomila boshqa-boshqa hodisadir.¹ Ammo faleronimik birliklar tuzilishida qoʻshma soʻz shaklidagi nomlar uchramaydi, aksincha ularning koʻpchiligi soʻz birikmasi koʻrinishidadir. Shuning uchun biz tadqiqotimizda birikma tuzilishidagi nomlarni ham koʻp komponentli faleronimlar tarkibida oʻrganishga qaror qildik.

Koʻp komponentli faleronimik birliklarni ikki guruhga ajratish mumkin:

- 1.Birikma koʻrinishidagi faleronimlar (ikkita soʻzdan tashkil topgan)
- 2.Kengaygan birikma koʻrinishidagi faleronimlar (ikkidan ortiq soʻzdan tashkil topgan)

Birikma koʻrinishidagi faleronimlar. Nosirjon Uluqov oʻzbek tilidagi faleronimlarning barchasini birikma holida tasnif qilgan, yaʼni unvon, orden, medal kabi indikatorlarni ham faleronimlarning tarkibiga kiritgan.² Ammo biz tadqiqotimizda faqat faleronimlarning tarkibini tahlilga tortdik. Ular morfologik-leksik tarkibiy tahliliga koʻra rang-barang soʻz turkumlariga xos birliklardan tashkil topgandir. Ularning xarakterli koʻrinishlari asosan quyidagilar:

- 1.apellyativ (ot) + apellyativ (ot): “Oʻzbekiston Qahramoni” unvoni, “Oltin Yulduz” medali “Soha iftixori” koʻkrak nishoni, “Oltin qalam” mukofoti, “El-yurt hurmati” ordeni, “Mehnat shuhrati” ordeni, “Kelajak bunyodkori” medali, “Oʻzbekiston belgisi” koʻkrak nishoni.

¹ Hojiyev A. Oʻzbek tilida qoʻshma, juft va takroriy soʻzlar.8-bet.

² Uluqov N.M. Faleronimlar xususida.Oʻzbek tili va adabiyoti. 2011. №5.- B.79-82.

2. apellyativ (sifat) + apellyativ (ot): “Ilg‘or fermer” ko‘krak nishoni, “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni, “Namunali tomorqachi” ko‘krak nishoni, “Eng yosh olim” nominatsiyasi.

3. apellyativ (ot) + apellyativ (sifat): “Soha a‘lochisi” ko‘krak nishoni, “Ma‘naviyat fidoyisi” ko‘krak nishoni, “Mehnat faxriysi” ko‘krak nishoni.

Birikma ko‘rinishidagi faleronimlar tarkibidagi so‘zlar bir-biriga so‘z birikmasidagi so‘zlarning bog‘lanish usullaridan moslashuv va bitishuv orqali bog‘langan va moslashuvda asosan qaratqich kelishigi qo‘shimchasi belgisiz holda qo‘llangan.

Kengaygan birikma ko‘rinishidagi faleronimlar . 1. apellyativ (ot) + apellyativ (ot) + apellyativ (sifat): “Xalq ta‘limi fidoyisi” ko‘krak nishoni, “Madaniyat va san‘at fidokori” ko‘krak nishoni, “Jismoniy tarbiya va sport a‘lochisi”, “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar” a‘lochisi.

2. apellyativ (sifat) + apellyativ (ot) + apellyativ (ot): “Inovatsion g‘oyalar yetakchisi” ko‘krak nishoni, “Eng yaxshi matbuot xizmati” nominatsiyasi, “Eng yaxshi marketing xizmati” nominatsiyasi.

3. apellyativ (sifat) + apellyativ (ot) + apellyativ (sifat): “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar a‘lochisi” ko‘krak nishoni.

4. apellyativ (ot) + apellyativ (sifat) + apellyativ (ot): “Yilning eng yaxshi murabbiyi” nominatsiyasi, “Yilning eng yaxshi jamoasi” nominatsiyasi, “Yilning eng faol o‘qituvchisi” nominatsiyasi.

5. apellyativ (sifat) + apellyativ (ot) + ko‘makchi: “Sog‘lom avlod uchun” ordeni, “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni, “Sodiq xizmatlari uchun” medali.

6. apellyativ (ravish) + apellyativ (ot) + ko‘makchi: “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni.

7. apellyativ (ot) + apellyativ (sifat) + apellyativ (ot) + apellyativ (ot): “Yilning eng yaxshi ayol xonandasi”, “Yilning eng yaxshi erkak sportchisi”, “Yilning eng faol maktab direktori” nominatsiyasi.

8. apellyativ (ot) + apellyativ (ot) + apellyativ (ot) + apellyativ (ot): “O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti” faxriy unvoni, “O‘zbekiston Respublikasi xalq baxshisi”

faxriy unvoni, “O‘zbekiston Respublikasi xalq rassomi” faxriy unvoni, “O‘zbekiston Respublikasi xalq ustasi” faxriy unvoni, “O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi” faxriy unvoni, “O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi” faxriy unvoni, O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi” faxriy unvoni.

9. apellyativ (ot) + apellyativ (ot) + apellyativ (sifatdosh) + apellyativ (ot): “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sportchi” faxriy unvoni, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan iqtisodchi” faxriy unvoni, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan me’mor” faxriy unvoni, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist” faxriy unvoni, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan paxtakor” faxriy unvoni, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan pillachi” faxriy unvoni, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan chorvador” faxriy unvoni, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan irrigator” faxriy unvoni.

10. apellyativ (ot) + apellyativ (ot) + apellyativ (sifatdosh) + apellyativ (ot) + apellyativ (ot): “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” faxriy unvoni, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan transport xodimi” faxriy unvoni, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sport ustози” faxriy unvoni, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni.

11. apellyativ (ot) + apellyativ (ot) + apellyativ (sifatdosh) + apellyativ (ot) + apellyativ (ot) + apellyativ (ot): “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan qishloq xo‘jalik xodimi” faxriy unvoni, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fuqaro aviatsiyasi xodimi” faxriy unvoni, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi” faxriy unvoni.

12. apellyativ (ot) + apellyativ (ot) + apellyativ (sifatdosh) + apellyativ (ot) + apellyativ (harakat nomi) + apellyativ (ot): “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sog‘liqni saqlash xodimi” faxriy unvoni, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan aholiga xizmat ko‘rsatish xodimi” faxriy unvoni.

13. apellyativ (ot) + apellyativ (ot) + apellyativ (ot) + apellyativ (ot) + apellyativ (sifat): “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi fidoiysi” ko‘krak nishoni.

14. apellyativ (ot) + apellyativ (ot) + apellyativ (ot) + apellyativ (son) + apellyativ (ot): “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 20 yil” esdalik nishoni, “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 25 yilligi” esdalik nishoni, “O‘zbekiston Konstitutsiyasiga 25 yil” esdalik nishoni.

15. apellyativ (ot) + apellyativ (ot) + apellyativ (harakat nomi) + apellyativ (sifatdosh) + apellyativ (ot) + ko‘makchi: “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda qo‘shgan hissi uchun” ko‘krak nishoni,

16. apellyativ (ot) + apellyativ (sifat) + apellyativ (harakat nomi) + apellyativ (sifat): “Uy-joy komunal xizmat ko‘rsatish a‘lochisi ko‘krak nishoni.

17. apellyativ (son) + apellyativ (ot) + apellyativ (sifat) + apellyativ (ot) + apellyativ (ot) + apellyativ (sifat) + apellyativ (ot) + ko‘makchi: “1941-1945-yillardagi Ulug‘ Vatan urushidagi shavkatli mehnati uchun.

O‘zbek tili faleronimiyasi tarkibi bo‘yicha kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, faleronimlarning komponentlari turlicha va xilma-xil hosil bo‘lmagan. Aksincha, takror qo‘llanuvchi komponentlar juda ko‘p uchraydi. Shunday ekan, takror qo‘llanuvchi komponentni universal komponent deyish mumkin. Universal komponent ko‘plab faleronimlar tarkibida kela oladi, murakkab faleronimning ham birinchi ham ikkinchi qismini tashkil qila oladi.

Demak, o‘zbek faleronimiyasi tizimining miqdoran boyishi universal bo‘lgan leksemalarning ko‘plab faleronimlar tarkibida takrorlanib kelishi bilan bog‘liqdir. Ko‘rinib turibdiki, yangi faleronimlar har safar ham yangi apellyativlardan hosil bo‘lavermaydi, balki faleronimiyaning ichki imkoniyatlariga tayangan holda shakllanadi. Ushbu usul juda sermaxsul bo‘lib, o‘zbek faleronimiyasi fondi rivojining muhim manbaidir.

Nomlarning qo‘shma ismni tashkil qiladigan qismlarining universalligi tufayli yangi toponimlar hosil bo‘lishi bir vaqtlar V.N.Toporov va O.N.Trubachovlar qayd qilgan edilar ¹.

¹ Toporov V.N., Трубачёв О.Н. Лингвистический анализ гидронимов Верховного Поднепровья / Отв.ред. Толстой И.М.: Изд-во АН СССР, 1962. С.159-172.

B.A.Seberinnikov toponimiya tadqiqotlarida nomlar tarkibida takrorlanib turadigan qismlarni aniqlash muhimligini qayd etadi. Bular, uning fikricha, “struktur-tipologik yasalishlar”, “ya`ni struktural modellardir”¹.

O‘zbek tili faleronimlari tarkibida ham takrorlanib turadigan qismlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Faleronimiya bo‘yicha kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, murakkab komponentli faleronimlar tarkibida keluvchi komponentlar qaysi o‘rinda kelishiga ko‘ra 3ga bo‘linadi:

1. Murakkab faleronimlarning old qismida keluvchi komponentlar.
2. Murakkab faleronimlarning orqa qismida keluvchi komponentlar.
3. Murakkab faleronimning har ikkala qismida keluvchi komponentlar.

1. Murakkab faleronimlarning old qismida keluvchi komponentlar.

Murakkab faleronimlarning old qismida keluvchi komponentlar faleronimik ko‘lamda juda ko‘p uchraydi. Fikrimizni quyidagi misollar bilan dalillashimiz mumkin: **“O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti”** faxriy unvoni, **“O‘zbekiston Respublikasi xalq baxshisi”** faxriy unvoni, **“O‘zbekiston Respublikasi xalq rassomi”** faxriy unvoni, **“O‘zbekiston Respublikasi xalq ustasi”** faxriy unvoni, **“O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi”** faxriy unvoni; **Yilning eng yaxshi ayol xonandasi** nominatsiyasi, **“Yilning eng yaxshi erkak sportchisi”** nominatsiyasi, **Yilning eng yaxshi murabbiyi** nominatsiyasi, **“Yilning eng yaxshi jamoasi”** nominatsiyasi, **“Yilning eng faol o‘qituvchisi”** nominatsiyasi, **“Yilning eng faol maktab direktori”** nominatsiyasi; **“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sportchi”** faxriy unvoni, **“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan iqtisodchi”** faxriy unvoni, **“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan me’mor”** faxriy unvoni, **“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist”** faxriy unvoni, **“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan paxtakor”** faxriy unvoni, **“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan pillachi”** faxriy unvoni, **“O‘zbekiston Respublikasida xizmat**

¹ Серебренников Б.А О методах изучения топонимических названий // Вопросы языкознания.1959.№6. С.45-47.

ko‘rsatgan chorvador” faxriy unvoni, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan irrigator” faxriy unvoni;

Yuqorida ko‘rsatilgan “O‘zbekiston Respublikasi xalq”, “Yilning eng yaxshi”, “Yilning eng faol”, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan” kabi komponentlar murakkab faleronimlarning faqat old qismida kelishi aniqlandi. Bunda takrorlanib keluvchi komponentlar va undan keyin kelgan so‘z tobe va hokim munosabatida bo‘ladi. Murakkab faleronimlardagi bu komponentlar tobe qism vazifasini bajaradi.

2. Murakkab faleronimlarning orqa qismida keluvchi komponentlar.

Murakkab faleronimning orqa qismida keluvchi komponentlar ham tilimizda ko‘p uchraydi. Ular, asosan, quyidagi so‘z turkumlari bilan ifodalanadi: **ot bilan:** “Soha **iftixori**” ko‘krak nishoni, “Mahalla **iftixori**” ko‘krak nishoni, “O‘zbekiston **iftixori**” ko‘krak nishoni; **sifat bilan:** “Soha **a’lochisi**” ko‘krak nishoni, “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar **a’lochisi**” ko‘krak nishoni, “Jismoniy tarbiya va sport **a’lochisi**” ko‘krak nishoni, “Xalq ta’limi **fidoyisi**” ko‘krak nishoni, “Ma’naviyat **fidoyisi**” ko‘krak nishoni, “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi **fidoyisi**” ko‘krak nishoni; **ot va ko‘makchi bilan:** “Buyuk **xizmatlari uchun**” ordeni, “Fidokorona **xizmatlari uchun**” ordeni, “Sodiq **xizmatlari uchun**” medali, **ko‘makchi bilan:** “Mehnatdagi jasorati **uchun**” medali, “Mehnatda o‘rnak ko‘rsatganligi **uchun**” medali, “Huquqiy targ‘ibot ishlari **uchun**” ko‘krak nishoni, “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda qo‘shgan hissasi **uchun**” ko‘krak nishoni.

Natijada o‘zbek tilidagi faleronimlarning struktural tahlili yuqoridagi komponentlarning murakkab faleronimlarda orqa qismida kelishini ko‘rsatdi.

3. Murakkab faleronimning har ikkala qismida keluvchi komponentlar.

Murakkab faleronimlarni tahlil qilish jarayonida faleronimlarning old qismida ham, orqa qismida ham bir xil takrorlanib keluvchi komponentlar aniqlandi.

Murakkab faleronimlarning har ikkala qismida keladigan komponentlar quyidagilar: “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat **xodimi**” faxriy unvoni, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan transport **xodimi**” faxriy unvoni, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat

ko‘rsatgan sog‘liqni saqlash xodimi” faxriy unvoni, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan aholiga xizmat ko‘rsatish xodimi”; O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 20 yil” esdalik nishoni, “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga 25 yil” esdalik nishoni; “1941-1945-yillardagi Ulug‘ Vatan urushida Germaniya ustidan qozonilgan g‘alaba uchun” medali, “1941-1945-yillardagi Ulug‘ Vatan urushidagi shavkatli mehnati uchun” medali.

Shu o‘rinda, O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalaridan bosh harflar imlosining 72-bandida faleronimiyaga doir qaydlarni sanab o‘tishni lozim topdik. Faleronimiya tarkibidagi barcha nomlar bosh harf bilan yoziladi, chunki ular atoqli otlarga mansub. Davlatning oliy darajadagi mukofoti nomi tarkibidagi har bir so‘z bosh harf bilan boshlanadi: “O‘zbekiston Qahramoni” (unvon), “Oltin Yulduz” (medal). Bosh mukofatlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi so‘zlar bosh harf bilan boshlanadi: “Sog‘lom avlod uchun” (orden), “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi” (faxriy unvon), “Matbaa a‘lochisi” (nishon) kabi¹.

Faleronimlarning deyarli barchasida qo‘shirnoq belgisi faol qo‘llanuvchi tinish belgisi hisoblanadi. U chegaralovchi tinish belgi bo‘lib faleronimik birlikni faleronimik termindan ajratib ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Faleronimlarda qo‘shirnoqning qo‘llanishi quyidagi hollarda kuzatiladi: “Shuhrat” medali, Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni va b.

Faleronimlarda “nomli”, “nomidagi” so‘zlari ham qo‘llanadi. Bu so‘zlar qo‘llanganida faleronimda qo‘shirnoq ishlatilmaydi. Masalan, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti, Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti .

Yuqoridagi tahlil namunalaridan quyidagicha xulosaga kelishimiz mumkin: Ko‘p komponentli ya’ni murakkab faleronimlar tarkibida takrorlanib qo‘llanuvchi universal komponentlar juda faoldir. Shunday ekan, faleronimlarning struktural tahlilida ularni alohida o‘rganish, ularning yangi derivatsion modellarini aniqlash tilshunoslikning faleronimika sohasidagi dolzarb masalalardan biridir.

¹ O‘zbek tilining imlo qoidalari. Toshkent.2003.16-bet.

3.2- Faleronimlarda grammatik vositalarning qo'llanishi

3.2.1 Faleronimlarda qaratqich kelishigining qo'llanishi. Faleronimlarning grammatik qurilishi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, uni tashkil etuvchi so'zlar, sintaktik birliklar, sintaktik munosabatlarni ifodalovchi grammatik vositalar o'zining qat'iy tartibiga va funksiyasiga ega. Faleronimlar tarkibidagi so'zlarning grammatik xususiyatlariga nazar tashlasak, ularda asosan ot turkumiga oid so'zlar faolligi ko'rinadi. Sifat, son va fe'l ularning yordamchi komponenti sifatida ishtirok etadi.

Grammatik ma'no ifodalovchi qo'shimchalarning faleronimlarda qo'llanishi ham chegaralangan. Grammatik kategoriya hosil qiluvchi affikslarning ba'zilari faleronimlarda deyarli ishlatilmasa, ot turkumiga oid grammatik kategoriya ko'rsatkichlari faol qo'shimchalar hisoblanadi. Otga xos bo'lgan egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalari faleronimlarda qo'llanishiga ko'ra faol va nafaol qo'shimchalarga ajratish mumkin. Masalan, kelishik qo'shimchalaridan qaratqich va o'rin-payt kelishiklari, egalik qo'shimchalaridan III shaxs birlik qo'shimchasi faol qo'llanilsa, II va III shaxs egalik qo'shimchalari deyarli qo'llanmaydi.

Bilamizki, faleronimlar asosan rasmiy uslubda qo'llanadi. Shu o'rinda, biz qaratqich kelishigi qo'shimchasining shu uslub doirasidagi ayrim jihatlarini sanab o'tamiz. Yuqorida faleronimlarda kelishiklarning qo'llanish doirasi chegaralanganligini aytib o'tdik. Biroq kuzatishlarimizdan faleronimlar tarkibida qaratqich kelishigi qo'shimchasining ishlatilishi faol ekanligi aniqlandi. Bunday grammatik xususiyatlar murakkab, ya'ni bir necha komponentli faleronimlarda, ayniqsa qaratqich va qaralmish munosabatlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Faleronimlarda qaratqich kelishigini belgili va belgisiz qo'llashda adabiy til qonun-qoidalariga amal qilish kerak. Qaratqich kelishigining belgisiz shakli til birliklarini iqtisod qilish nuqtayi nazaridan qulaydir. Biroq ba'zi o'rinlarda qaratqich kelishigini faqat grammatik qonuniyat asosida qo'llaganda, ma'lum uslubiy g'alizliklar kelib chiqadi.

Hozirgi o‘zbek tilida aniqlovchining aniqlanmishdan oldin kelishi me‘yoriy holat hisoblanadi. Qaratqich kelishigining belgili va belgisiz qo‘llanishi ham ayrim uslubiy o‘ziga xosliklarni keltirib chiqaradi.

Faleronimlarda bunday o‘rinlarda quyidagi ikkita holatni farqlash kerak:

1. Agar III shaxs egalik qo‘shimchasi faleronimik indikator tarkibida kelsa, qaratqich belgisiz qo‘llanishi shart. Masalan: “Shuhrat” medali, “Salomatlik” ordeni, “Do‘stlik” ordeni. Bunda faqat nomlashning mavjudligi, qarashlilik ma‘nosi yaqqol sezilib turibdi.
2. Qarashlilik mavjud bo‘lib, egalik qo‘shimchasi aynan faleronimning tarkibida kelgan hollarda qaratqich qo‘shimchasi belgili va belgisiz qo‘llanishi erkin bo‘ladi. Qaratqich kelishigining belgili va belgisiz holda qo‘llanishi formal shaklda bo‘lib, uning sintaktik birlik tarkibida qo‘llanilishi yoki qo‘llanilmasligi mazmunga jiddiy ta‘sir etmaydi. Masalan: “O‘zbekiston Respublikasi xalq baxshisi”, “O‘zbekiston Respublikasi san‘at arbobi”, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan qishloq xo‘jalik xodimi”, “Mehnat shuhrati”, “Kelajak bunyodkori”, “O‘zbekiston belgisi”, “Inovatsion g‘oyalar yetakchisi”, “Xalq ta‘limi fidoyisi”, “Soha iftixori”, “Mehnat faxriysi”, “Mahalla iftixori”, “Ma‘naviyat fidoyisi”.

Shu o‘rinda o‘zbek tilidagi ikki ot turkumiga oid so‘zlarning moslashuv yo‘li bilan birikuvi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Qaratuvchi bilan qaralmish kontakt (yonma-yon) holatda joylashsa, qaratqich kelishigi belgili yoki belgisiz ishlatiladi. Bunday ikki xil ishlatilish uslub talabi bilan, ma‘no talabi bilan voqe bo‘ladi. Belgisiz qaratqich qurilishidagi qo‘llanilishlarda qaratqich-qaralmish umumiy xoslikni, noaniq xoslikni bildiradi va aniqlanmish (qaralmish) obyekt qaysi guruhga yoki qaysi kategoriyaga taalluqli ekanligiga ishora qiladi. Bunday tipdagi birikmalar kengaytirilgan nom sifatida idora va muassasa nomlarida, rasmiy hujjatlarda, gazeta tilida tez-tez uchraydi ¹.

Faleronimlarda uslub talabi bilan bir necha o‘rinlarda belgili ishlatilishi lozim bo‘lgan qaratqich kelishigi belgisiz ishlatiladi: “O‘zbekiston Respublikasi xalq

¹ O‘zbek tili grammatikasi. – T.: Fan, 1976. II-jild. -60b.

shoiri” , “O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti”, “O‘zbekiston Respubliasi xalq hofizi”, “O‘zbekiston respublikasi xalq rassomi”.

Faleronimlardagi qaralmish sifatlovchiga ega bo‘lsa, ya’ni qaratqich bilan qaralmish orasida so‘z qatnashsa, qaratqich kelishigi odatda belgili ishlatiladi: “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 25 yilligi”, “Konstitutsiyaning 25 yilligi”, “Ikkinchi jahon urushidagi g‘alabaning 70 yilligi”.

Demak, faleronimlarda qaratqich kelishigining belgili va belgisiz qo‘llanishi ularning o‘ziga xos qirralari bilan ajralib turadi. Ulardan o‘rinli foydalanish – faleronimlarni ixcham shaklda keng ommaga yetkazishdan iborat muhim vazifani amalga oshirishdir.

3.2.2.Faleronimlarda egalik qo‘shimchasining qo‘llanishi. Mustaqil so‘zlar orasidagi grammatik aloqani ta’minlovchi, ya’ni ularni bir-biriga bog‘lovchi vositalar o‘zbek tilida juda ko‘p va xilma-xildir. Murakkab faleronimlar tarkibida bunday grammatik ko‘rsatkichlarning ishlatilish doirasi bir qator cheklangan. Ushbu holni yuqorida qaratqich kelishigining boshqa kelishiklarga qaraganda faol qo‘llanishi misolida ko‘rib o‘tdik.

Faleronimlar tarkibida ot+ot birikuvli birikmalar yetakchi bo‘lib, ular asosan moslashuv yo‘li bilan yuzaga kelgan bog‘lanishdir. Moslashuvli bog‘lanish tufayli qaratuvchilik - mansublik ma’nolari ifodalanadi. Qaratqich kelishigidagi so‘z qaratuvchilik, egalik qo‘shimchasini olgan so‘z mansublik ma’nosini anglatadi. Faleronimlarda mansublik ma’nosini ifodalashda faqat III shaxs qo‘shimchasi (-i,-si) ishtirok etib I va II shaxs qo‘shimchalari mazkur ma’noni ifodalash xususiyatiga ega emas.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, egalik qo‘shimchasini olgan so‘z doim egalik ma’nosini anglatavermaydi. Ular faqat moslashuvli birikmalardagina shunday ma’noga ega bo‘ladi. Egalik qo‘shimchasini olgan so‘z bosh kelishikdagi so‘zga bog‘lansa mansublik ma’nosi anglashilmaydi. Masalan, “Salomatlik” ordeni, “Do‘stlik” ordeni, “Jasorat” medali, “Shuhrat” medali.

Faleronimlar tarkibida, agar u murakkab faleronim bo‘lsa, ularda qaratqich va egalik affikslarining bir necha marta takrorlanishi o‘ziga xos xususiyatga ega. Til

qonun-qoidalariga ko'ra, bir necha qaratqich kelishigining birgina faleronimda belgili holda takror qo'llanishi uslubiy g'alizlikni keltirib chiqarganligi sababli, faqat uning oxirgisini belgili qo'llash adabiy me'yor hisoblanadi. Egalik qo'shimchasi murakkab faleronimlarda mansublik ma'nosini anglatib, xuddi qaratqich kelishigidek bir necha bor takror qo'llanishi mumkin. Biroq ularning belgili ifodalanishi axborotni aniq yetkazishga yordam berib, axborotni ikki xil tushunishning oldini oladi. Masalan, "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 25 yilligi", "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi fidoyisi", "Xalq ta'lim fidoyisi" kabi faleronimlarda ifodalangan egalik qo'shimchalaridan birortasi tushirib qoldirilsa, axborotning aniqligiga putur yetadi va lisoniy jihatdan g'alizlik vujudga keladi.

Demak, egalik qo'shimchalari faleronimlarda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ma'lum obyektning qarashlilik, mansublik, tegishlilik, xoslik ma'nolarini anglatishda asosiy grammatik ko'rsatkichlardan biridir. Ma'lum ma'noda aytish mumkinki, egalik qo'shimchasi faleronimlar tarkibini shakllantiruvchi va yakunlovchi oxirgi grammatik belgi hisoblanadi.

3.3- .Faleronimlar tarkibida qo‘llanuvchi indikatorlar.

Onomastik indikatorlar nom tarkibida ishtirok qilib, nomning xarakteri, mazkur obyektning boshqa xususiyatlarini o‘zida saqlagan bo‘ladi. O‘zbek tilshunosligida har bir onomastik birlikni taqdiq qilishda onomastik indikatorlarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Indikatorlar nomning qanday, qaysi, obyektning atoqli oti ekanini aniqlab, unga ishora qilib turadi. Mana shunday holat faleronimikada ham mavjud. Faleronimlar tuzilishidagi mana shunday vositani biz “faleronimik indikatorlar” deb atashni lozim topamiz. Faleronimik indikatorlar taqdirlash va rag‘batlantirish belgisi bo‘lgan mukofotlar nomlarini qaysi turga kirishiga aniqlik kiritadi va uni ifodalab turadi. Bunday indikatorlar apellyativ birlik sifatida morfologik jihatdan ot turkumiga mansubdir va faleronimlar tarkibida indikatorlik xususiyatini kasb etadi. Turli so‘zlarni faleronimlikka, muayyan mukofotlarning atoqli nomini ifodalashga xoslaydi. Indikatorlarning har biri leksik-semantik, funksional xususiyatlarga ega. Faleronimlar va faleronimik indikatorlarning genetik aloqasi ularni bir xil hodisa deb qarashga asos bermaydi. Ular garchi o‘zaro aloqador bo‘lsalar ham, bir-biridan farqlanadi. Indikatorlar bir xildagi shaxs, o‘rin-joy, osmon jismi, o‘simlik, hayvonot kabi obyektlarning guruhini nomlaydi, atoqli otlar esa nomlangan obyektlardan birini boshqalaridan ajratib ko‘rsatadi. Indikatorlar tushuncha ifodalaydi, atoqli otlar esa bunday xususiyatga ega emas. Boshqacha aytganda, indikatorlar va onomastik birliklar bir kategoriyaning ikki shakli hisoblanadi: indikatorlar atoqli ot tarkibidagi turdosh so‘z sanaladi. Bu ikki leksik guruhdagi elementlar doimo bir-biriga o‘tib turadi. O‘Rajabov “Toponimik indikatorlarning funksional-semantik xususiyatlari” mavzusidagi dissertatsiyasida o‘z qatlamga oid indikatorlar va o‘zlashma qatlamga oid indikatorlar kabi guruhlab tasnif qiladi. Faleronimik indikatorlar ham , asosan, o‘zlashma qatlamga mansub so‘zlarni tashkil qiladi. Har bir til o‘zining leksikasi va grammatik strukturasida boshqa til elementlarini ma’lum darajada saqlagan bo‘ladi. Albatta, bu turli lingvistik sabablardan tashqari lingvistik bo‘lmagan sabablarga ham bog‘liqdir. Har bir xalq o‘z taraqqiyoti davomida boshqa xalqlar bilan aloqada bo‘ladi. Ularning iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari tilda o‘z

aksini topadi. Shu tariqa uzoq davrlar jarayonida aloqa qilish boshqa tillardan leksik elementlarning o'tishiga sabab bo'ladi.

Faleronimik indikatorlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Orden – (lot. ordo — qator, daraja) metall nishon, taqdirlash belgisi, harbiy yoki fuqarolik xizmatlari uchun beriladigan faxriy mukofot. Ordenning taqdirlash belgisi sifatida vujudga kelishi ritsarlik tarixi bilan bog'likdir. Qadimda ritsarlar alohida kiyim bosh kiyib, bo'yinlariga qimmatbaho metallardan yasalgan krest taqib yurishgan, bu ularning muayyan ritsarlik tashkiloti (ordeni)ga tegishlilikini bildirib turgan. «Falon Orden kavaleri» (ya'ni a'zosi) degan ibora ana shundan kelib chiqqan. XIV-XVI asrlarda saroy amaldorlarining belgilari paydo bo'ldi, ular keyinroq mukofotlar tusini oldi (mas, 1348- yoki 1350-yildan inglizlarning Bog'ichlar ordeni; 1399-yildan Bani ordeni; 1429-yildan avstriyaliklar va ispanlarning Oltin Jun teri ordeni; 1579-yildan fransuzlarning muqaddas Ruh ordeni). Islom dini tarqalgan Turkiya, Eron, arab davlatlarida podsholar buyuk xizmatlar ko'rsatgan odamlarni bo'yniga taqishga mo'ljallangan yarim oy shaklidagi nishonlar bilan taqdirlashgan. Taqdirlash marosimlari, asosan, diniy va milliy bayramlarda o'tkazilgan. Rossiyada birinchi orden Petr I 1698-yilda ta'sis etgan (avliyo apostol Andrey Pervozvanniyy ordeni). Oktabr to'ntarishidan keyin podsho orden va medallari bekor qilindi. O'zbekiston mustaqil respublikalar ichida birinchi bo'lib o'z orden va medallarini joriy etdi hamda ularni, shuningdek, turli esdalik va kolleksiya tangalarini o'zida ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi¹. Ushbu indikator quyidagi faleronimlar tarkibida qo'llangan: «*Mustaqillik*» ordeni bilan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari mustaqil huquqiy davlat barpo etish va uni mustahkamlashga, respublikada tinchlik va taraqqiyotni ta'minlashga qo'shgan ulkan hissalar uchun mukofotlanadilar. Masalan, «*El-yurt hurmati*» ordeni bilan mamlakat mustaqilligini, uning iqtisodiy qudratini mustahkamlashga, milliy ma'naviyatni, madaniyatni yuksaltirishga katta hissa qo'shgan, o'z mehnati, ilmiy, jamoat ishi, mehnatsevarligi va vatanparvarligi bilan jamoatchilikning izzat-hurmatiga sazovor bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari mukofotlanadilar.

¹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild. Toshkent, 2003. 560-bet.

«Fidokorona xizmatlari uchun» ordeni bilan mamlakatning iqtisodiy va madaniy yuksalishiga, mudofaa qudratini kuchaytirish va milliy xavfsizligini ta'minlashga, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni, millatlararo hamjihatlikni mustahkamlashga, xalq farovonligini oshirishga katta hissa qo'shgan, o'zining iste'dodi, bilim va tajribasini Vatanimiz ravnaqiga baxsh etib, fidoyilik namunasini ko'rsatib kelayotgan fuqarolar va harbiy xizmatchilar mukofotlanadi.

«Mehnat shuhrati» ordeni bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari O'zbekistonda iqtisodiyot va madaniyat yuksalishiga, xalq farovonligi oshishiga, tinchlik va barqarorlik saqlanishiga xizmat qiladigan ulkan ishlari uchun mukofotlanadilar.

I va II darajali «Shon-sharaf» ordeni «Shon-sharaf» ordeni bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari Vatanni himoya qilishda ko'rsatgan fidoyilik va mardlik uchun, O'zbekistonda mudofaa qudratini va milliy xavfsizlikni mustahkamlash, qurolli kuchlarning jangovar tayyorgarligini oshirish va huquq-tartibotni ta'minlash ishidagi katta xizmatlari uchun mukofotlanadilar.

«Do'stlik» ordeni bilan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari O'zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning vakillari o'rtasida do'stlik, o'zaro hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash ishida erishgan katta yutuqlari, O'zbekiston xalqining boshqa mamlakatlar xalqlari bilan do'stlik va har taraflama hamkorligini rivojlantirganliklari uchun mukofotlanadilar.

«Mardlik» ordeni O'zini Vatanni himoya qilishga va ona yurt xizmatiga bag'ishlagan, bunda mardlik hamda jasorat ko'rsatgan O'zbekiston Respublikasi harbiy xizmatchilari va boshqa fuqarolari mukofotlanadi. Alohida hollarda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan shaxslar ham mukofotlanishi mumkin.

Medal (frans. medaille, lot. metallum — metall) — biror voqea, arbob yoki joy sharafiga chiqariladigan, odatda 2 tomoniga tasvir tushirilgan va (yoki) yozuvi bo'lgan, ko'pincha, doira, tuxumsimon yoki ko'pburchakli shakldagi, har xil o'lchovli metall nishon. Aksariyat hollarda oltin, kumush, bronzadan tayyorlanadi. Medal Qadimgi Rimdayoq ma'lum edi. Lekin medal yasash san'ati

XIV-XV asrlarda boshlangan (Italiya, Vizantiya). Medal davlat yoki jamoatchilik mukofoti sifatida alohida xizmatlar, mardlik uchun, fan, madaniyat, sport sohasidagi katta yutuqlar uchun, yubiley sanalari munosabati bilan esdalik uchun, biron bir voqeda ishtirok etganlik uchun beriladi ¹. Ushbu indikator quyidagi faleronimlar tarkibida qoʻllangan:

«*Jasorat*» medali bilan Oʻzbekiston Respublikasi harbiy xizmatchilari, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiyasining va ichki ishlar organlarining xodimlari respublikaning milliy xavfsizligini taʼminlash, jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashda, harbiy burchni yoki xizmat burchini ado etish vaqtida koʻrsatgan mardlik va jasoratlari uchun mukofotlanadilar.

«*Sodiq xizmatlari uchun*» medali bilan yuksak kasbiy mahoratini, harbiy va vatanparvarlik burchiga sadoqatini namoyon etgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari mamlakatning mudofaa qobiliyati hamda milliy xavfsizligini mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar shayligini oshirish va O'zbekistonda huquq-tartibotni ta'minlash ishidagi katta xizmatlari uchun mukofotlanadilar.

«*Kelajak bunyodkori*» medali bilan vatanparvarlik, fidoyilik va mehnatsevarlik fazilatlarini namoyon etib, xalq manfaatlarini uchun sadoqat bilan xizmat qilayotgan, Vatanimizning xalqaro maydondagi obroʻ-eʼtiborini yuksaltirishga va shon-shuhratini oshirishga munosib hissa qoʻshayotgan, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida faolligi va tashabbuskorligi bilan tengdoshlariga oʻrnak boʻlayotgan, shuningdek oʻqishda va mehnat faoliyatida katta yutuqlarga erishgan, 14 yoshga toʻlgan va 30 yoshdan oshmagan Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari mukofotlanadi.

«*Shuhrat*» medali bilan respublika iqtisodiyoti, fani va madaniyatini rivojlantirish, yosh avlodni vatanparvarlik hamda milliy istiqlol va ijtimoiy taraqqiyot gʻoyalari sadoqat ruhida tarbiyalash ishida oʻzining halol mehnati bilan katta yutuqlarga erishgan Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari hamda Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosi boʻlmagan shaxslar mukofotlanadilar.

¹ Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild.Toshkent,2003.382-bet.

Nishon - (forscha –belgi, iz; muhr,tamg‘a; alomat; mo‘ljal; orden,medal;) omonimlik xususiyatga ega bo‘lib, orden va medal so‘zlari bilan bir ma’noda qo‘llanadi ¹. Nishon so‘zi faleronimik indikator sifatida esdalik nishoni va ko‘krak nishoni kabi birikma ko‘rinishida keladi. Esdalik nishoni – alohida olingan sanalar, bayramlar munosabati bilan taqdirlash shakli hisoblanadi. Masalan, *“O‘zbekiston Konstitutsiyasiga 25 yil” esdalik nishoni* bilan mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, uning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ilmiy, ma’naviy salohiyatini va mudofaa qudratini yuksaltirish, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, davlatimiz sarhadlarining daxlsizligini ta’minlash, jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik va barqarorlikni, millatlararo do‘stlik va totuvlikni asrash, asosiy qonunimizning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini keng targ‘ib etish, yosh avlodni qonunga hurmat, Vatanga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash ishlariga munosib hissa qo‘shib kelayotgan barcha soha vakillari, mehnat faxriylari, harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari hamda boshqa shaxslar taqdirlanadi.

“O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 25yilligi” esdalik nishoni bilan mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, uning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ilmiy, ma’naviy salohiyatini va mudofaa qudratini yuksaltirish, davlatimiz sarhadlarining daxlsizligini ta’minlash, demokratik islohotlarni amalga oshirish, jamiyatimizda hukm surayotgan millatlararo do‘stlik va totuvlikni, tinchlik va barqarorlikni asrash, milliy madaniyatimiz va san’atimizni rivojlantirish, sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, yoshlarimizni vatanparvarlik va istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash ishlariga munosib hissa qo‘shib kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizning barcha sohalar vakillari, mehnat faxriylari, harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari hamda boshqa shaxslar taqdirlanadi.

Ko‘krak nishoni ham faleronimlar bilan qo‘llanuvchi faol indikator hisoblanadi. Ko‘krak nishoni – fuqarolarni alohida soha, faoliyat yo‘nalishlarida qilgan alohida xizmatlarini mukofotlash shaklidir. Masalan, *“Jismoniy tarbiya va*

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 3-jild.Toshkent.2006.42-bet

sport a'lochisi" ko'krak nishoni bilan Olimpiya, Paralimpiya va Osiyo o'yinlari hamda jahon, Osiyo chempionatlarida va boshqa nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishgan, Vatanimiz bayrog'ini baland ko'tarib kelayotgan sportchilarning trenerlari, jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilishiga munosib hissa qo'shib kelayotgan, shuningdek, mamlakatimizning barcha hududlarida ommaviy sportning inson va jamiyat hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va ma'naviy sog'lomlikning asosi ekanini targ'ib qilish, iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida sidqidildan mehnat qilayotgan, respublikada jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali kadrlar tayyorlashda jonbozlik ko'rsatayotgan tajribali, yetuk jismoniy tarbiya va sport sohasi vakillari taqdirlanadilar.

"Ma'naviy-ma'rifiy ishlar a'lochisi" ko'krak nishoni bilan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga munosib hissa qo'shgan harbiy xizmatchilar va fuqarolar taqdirlanadi. *"Soha iftixori"* ko'krak nishoni bilan Davyergeodezkadastr qo'mitasi sohada uzoq yillar mobaynida samarali faoliyat yuritayotgan, uning rivojiga o'zining sezilarli hissasini qo'shgan xodimlar hamda o'zini har tomonlama namoyon etib kelayotgan jonkuyar yoshlar munosib taqdirlanadi.

"Mahalla iftixori" ko'krak nishoni ko'krak nishoni bilan mamlakatimizning iqtisodiyot, ishlab chiqarish, ilm-fan, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, yurisprudensiya hamda boshqa sohalarida ko'p yillar davomida halol va samarali mehnat qilgan nafaqa yoshidagi yurtdoshlarimiz, shuningdek, ishlamaydigan, hayotini oilalar mustahkamligini saqlash, farzandlarimizni jamiyat oldida mas'uliyat, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga, kattalarga va yosh avlod vakillariga hurmat, ona-Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida

tarbiyalash ishlariga bag'ishlab, jamiyatimizda hurmat qozongan onalar taqdirlanadi.

"Huquqiy targ'ibot ishlari uchun" ko'krak nishoni ko'krak nishoni bilan jamiyatda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga munosib hissa qo'shgan davlat organlari va tashkilotlar xodimlari aholining huquqiy savodxonligini oshirishda ko'rsatgan xizmatlari uchun taqdirlanadilar.

Mukofot - faleronimik indikator sifatida biron bir faoliyat sohasidagi alohida yutuqlar uchun rag'batlantirish shakli. O'zbekiston Respublikasida pul va natura ko'rinishidagi, yakka shaxslarga yoki jamoaga beriladigan mukofotlar mavjud mukofotlar o'zining darajasiga ko'ra: davlat mukofotlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat tashkilotlarining mukofotlari, korxona, muassasalarning o'z xodimlariga beradigan mukofotlari, xalqaro mukofotlarga; shakliga ko'ra esa — ordenlar, medallar, faxriy unvonlar, qimmatbaho sovrinlar, pul mukofotlari va boshqalarga bo'linadi. Ushbu indikator quyidagi faleronimlar tarkibida qo'llangan: *Nihol mukofoti, O'zbekiston yoshlar ittifoqining mukofoti, Mard o'g'lon davlat mukofoti, Beruniy nomidagi O'zbekiston Respublikasi davlat mukofoti.*

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti O'zbekistonning madaniy hayotida katta voqea bo'lgan, milliy qadriyatlar xazinasini boyitgan adabiyot, san'at va me'morlik sohasidagi eng yorqin va sarmazmun asarlar uchun beriladi. Bu mukofotga respublikada hamda chet ellarda e'lon kilingan, alohida kitob shaklida nashr qilingan, ommaviy ravishda ijro etilgan, ko'rsatilgan va namoyish qilingan hamda keng jamoatchilik tomonidan yuqori baholangan badiiy asarlar, san'at namunalari taqdim etiladi.

Zulfiya nomidagi davlat mukofoti ta'lim, fan, adabiyot, madaniyat, san'at, sport va jamoatchilik faoliyatida alohida yutuqlarga erishgan o'n to'rt yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan iqtidorli qizlarga beriladi.

Kamoliddin Behzod nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti adabiyot, san'at va me'morlik sohasidagi davlat mukofotlaridan biri. Sharq uyg'onish davri yetuk san'atkori, buyuk miniatyurachi musavvir Kamoliddin Behzod nomi bilan yuritiladi. Mukofot tasviriy va amaliy san'at, xalq

hunarmandchiligi sohasida yaratilgan, milliy istiqlol g'oyalarini yorqin badiiy shakllarda aks ettirgan, O'zbekistonning buyuk tarixini va hozirgi yuksalish jarayonlarini haqqoniy obrazlar orqali gavdalandirgan va keng jamoatchilik tomonidan tan olingan yetuk san'at asarlari uchun beriladi.

Faxriy unvon ham faleronimik indikatorlar sirasiga kiradi. Faxriy – (arabcha hurmatli, sharaflı, muhtaram) – alohida xizmatlari uchun taqdirlash ma'nosini bildiradi ¹.

Unvon- (arabcha adres, sarlavha, nom, belgi, ramz) omonimlik xususiyatiga ega bo'lib, biror ish-faoliyat sohasidagi alohida xizmatni rasman e'tirof etadigan, vakolatli organlar tomonidan beriladigan nom ².

Faxriy unvon- O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning alohida xizmatlarini yuksak e'tirof etish shakllaridan biri. Ushbu indikator quyidagi faleronimlar tarkibida qo'llangan:

«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi» faxriy unvoni, *«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan me'mor»* faxriy unvoni, *«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist»* faxriy unvoni, *«O'zbekiston Respublikasi xalq hofizi»* faxriy unvoni.

Nominatsiya – (lot. – Nomination atash, nomlash; nomzodlik ko'rsatish) – muayyan ijodkorlik, ish-faoliyat sohasi bo'yicha bo'ladigan musobaqa-tanlovlarga nomzodlar ko'rsatish va g'oliblarni aniqlash jarayoni. Ushbu indikator quyidagi faleronimlar tarkibida faol qo'llangan :

“Ilm-fan sohasini rivojlantirishdagi kuchli irodasi va matonati uchun” nominatsiyasi, *“Yilning eng faol maktab direktori”* nominatsiyasi , *“Eng yaxshi professori”* nominatsiyasi, *“Eng yaxshi dotsent”* nominatsiyasi, *“Eng yaxshi ilmiy tadqiqotchi”* nominatsiyasi, *“Yilning eng faol o'qituvchisi”* nominatsiyasi.

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati.4-jild.Toshkent.2006.335-bet

² O'zbek tilining izohli lug'ati.4-jild.Toshkent.2006.288-bet

XULOSALAR

1. Faleronimlar orden, medal, faxriy unvonlar, ko'krak nishoni va nominatsiyalarning atoqli nomlarini ifodalovchi onomastik birliklardir.
2. Faleronimlar xalqning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, milliy-etnik, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi alohida xizmatlari uchun taqdirlash va rag'batlantirish bilan bog'liq munosabatlarining lisoniy ifodasidir.
3. Faleronimlar onomastik birlik sifatida orden, medal, faxriy unvon, ko'krak nishoni va nominatsiyalarni atash bilan nominativ, ularning biridan ikkinchisini farqlash bilan differensiatsiyalash, ular haqidagi axborot va bilimlarni keyingi avlodga yetkazish bilan kumulyativ vazifalarni bajaradi.
4. Faleronimlar atoqli otlarning alohida bir turi sifatida lisoniy vazifasi, semantik-funksional, nominatsion-motivatsion, struktural, derivatsion xususiyatlariga ko'ra boshqa onomastik birliklardan farqlanadi.
5. Faleronimika ilmiy-nazariy jihatdan faleronimik ko'lamni, faleronimik birliklarni va ularning lisoniy variantlarini, yuzaga kelishi bilan bog'liq lisoniy va nolisoniy omillarni, ilmiy an'analarni, lug'aviy-ma'noviy, morfemik xususiyatlarini, hosil bo'lishini, tilning apellyativ sathi bilan faleronimik sathi, faleronimlarning onomastikaning boshqa turlari bilan munosabatlarini o'rganish hamda amaliy jihatdan faleronimlarni to'plash, tartibga solish, faleronimlarning lug'atlarini yaratish bilan shug'ullanadi va uning natijalari tilshunoslik uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega.
6. O'zbek tilida faleronimik birliklarini nomlashda obyektga xos xususiyatlar, jamiyatga xos tarixiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy xususiyatlar va boshqa omillar asosga olingan. Faleronimlarni nomlashda ko'proq kasb-hunar leksikasi bilan bog'liq obyektga xos xususiyatlar motiv vazifasini bajargan.
7. Faleronimlar deyarli bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinadi. Agar atalish motiviga ko'ra antropofaleronim bo'lsa yoki tarkibida joy nomi ishtirok qilsa, antroponim va toponim kabi tarjima qilinmaydi.

8. Faleronimlar hosil bo'lishida tilning apellyativ sathiga xos lug'aviy birliklar asos rolini o'ynaydi. Faleronimlarning shakllanishida, yasalishida o'zbek tilidagi barcha so'z turkumlari ishtiroki bir xil emas. Asosan ot, sifat, ko'makchi, qisman fe'l (sifatdosh shakli va harakat nomi) turkumiga mansub so'zlar faleronimlar uchun lug'aviy asos bo'lgan. Tarixiy faleronimlar, asosan, ot turkumiga mansub leksik birliklardan yuzaga kelgan bo'lsa, zamonaviy faleronimiyada ot, sifat, ko'makchi, fe'l, ba'zi o'rinlarda son va ravish turkumiga tegishli so'zlar ham mavjud. Bu holat faleronimlar taraqqiyotini ko'rsatuvchi lisoniy dalildir.

9. O'zbek tili faleronimlari tuzilishiga ko'ra bir komponentli va ko'p komponentli faleronimlarga bo'linadi. O'zbek tili faleronimiyasida, asosan, murakkab komponentli faleronimlar miqdoran ko'p.

10. O'zbek tilining onomastik sathida bir onomastik birlikning boshqa onomastik birlikka o'tishi – tranسونimizatsiya keng tarqalgan. Bu faleronimiyaga ham xos bo'lib, antroponim, geortonim va boshqa atoqli ot turlaridan faleronimlar hosil bo'ladi.

11. Faleronimlarning antropotsentrik, sotsiolingvistik, etnolingvistik, lingvokulturologik tadqiqi nafaqat tilshunoslik, balki tarix, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, etnolingvistika, psixolingvistika fanlari uchun muhim boy materiallar beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Abdullayev F. O'zbek tili leksikasining ba'zi bir masalalariga doir . Til va adabiyot instituti asarlari. 1-kitob, Toshkent,1948.
2. Abdurahmonov D. Nom qo'yish. Fan va turmush jurnali,1960-yil, №6.
3. Арабско-русский словарью –М, 1977.
4. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. Toshkent, Universitet, 2007.
5. Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. Namangan,2006
6. Begmatov E. Avlaqulov Y. O'zbek tili onomastikasining makroko'lami tarkibi. O'zbek tili va adabiyoti.2007. №5.B.35-36
7. Begmatov E. Husanov N. Yoqubov Sh. Boqiyev B. O'zbek tarixiy onomastikasining dolzarb muammolari. O'TA, 1992, 5-6 sonlar.
8. Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi. Toshkent.: Fan, 2013.
9. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari, - T, 1985.
10. Boburnoma. Nashrga tayyorlovchi Shamsiyev P. Yulduzcha nashriyoti, 1990.
11. Будагов Л. З. Сравнительный словарь турецко- татарских наречий. Т. I. – СПб.: 1869.
12. Begmatov E. Toponimiyada o'z va o'zlashma qatlam masalasi // O'zbek tilining leksik-grammatik xususiyatlari. – Toshkent: Fan , 1981.
13. Дусимов З. Историко-лингвистический анализ топонимии Хорезма: Автореф. Дис. ... докт.филол.наук.Тошкент 1986. С.26
14. Ишанкулов Ю. К. Истории названий плодов в узбекском языке. – Ташкент, 1985.
15. Ismoilov I., Meliev K., Safarov M. O'rta Osiyo va Qozog'iston turkiy tillari leksiksidan tadqiqot. – Toshkent: Fan, 1990. – 258 b.
16. Jumanioyozov R. Eski o'zbek yozuvi, Toshkent, "O'qituvchi", 1989.
17. Jo'rayev B. J, Begmatov E.A. "Atoqli otlarni o'rganishga doir ba'zi mulohazalar" O'TA, 1966.

18. Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili, 2-qism, - T.:ToshDPU, 2004. 67 b.
19. Kamianets V. Zur Einteilung der deutschen eigennamen. Iwan-Franko-Universitat.2000.B.52-53.
20. Kojanuli M. Kazak onomastikasindag'i faleronim bag'itiiy turali birer so'z. Tiltanim. 2016.B.16-17.
21. Курышжанов А.К. Исследование по лексике старокыпчакского письменного памятника XIII века. Тюркско-арабского словаря. – Алма-ата, 1970.
22. Лившиц В. А., Хромов А. Л. Согдийский язык // Основы иранского языкознания. Среднеиранского языка. –М.: Наука, 1981. – С. 347- 514.
23. Madrahimov O'. O'zbek tilining o'g'uz lahjasi leksikasi. Toshkent, Fan, 1973.
24. Mahmudov N. "O'zbekning o'lmas so'zi"// TA. – Toshkent,1998.
25. Мадрахимов А. Исследование по лексике огузского наречия узбекского языка. Автореф. дисс. ... док. наук. – Ташкент, 1978.
26. Otajanova A. Xorazm etnotoponimlari . Toshkent : Fan,1997. 78-85-betlar.
27. Подольская Н.В. Словар русской ономастической терминологии. М.,1988.Б.140.
28. Поливанов Е.Д. Материалы по грамматике узбекского языка. Вып. I. – Ташкент: Носиздат УЗССР, 1935.
29. Qosimxo'jaev O. So'zning morfologik tarkibi. – Toshkent, 1963.
30. Qosimov N. O'zbek tili ilmiy terminologiyasi masalalari. – Toshkent, 1985.
31. Rahmatullaev SH. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 1-jild (turkiy so'zlar). – Toshkent, 2000. – 600 b.
32. Rahmatullaev SH. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 1-jild (arab so'zlar va ular bilan hosilalar). – Toshkent, 2003. – 600 b.
33. Rustamov A. Mahmud Zamaxshariy. –Toshkent: Fan, 1971.
34. Rustamov A. So'z xususida so'z. – Toshkent: YOsh gvardiya, 1987. – 155 b.
35. Rajabov O'. Toponimik indikatorlarning funksional-semantik xususiyatlari. ND. Toshkent ,2009.

36. Серебренников Б .А О методах изучения топонимических названий // Вопросы языкознания.1959.№6. С.45-47.
37. Серебренников Б.А. К проблеме типов лексической и грамматической абстракции // Вопросы грамматического строя. – М.: Акад.наук СССР, 1955.
38. Суперанская А.В. Наименования и переименования в городах // Изучение географических названий. – М.: Мысль, 1966.
39. Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. М., 1973. Б. 204.
40. Суперанская А.В Структура имени собственного С. 12-13
41. Суперанская А.В Апеллятив онома // Имя нарицательное и собственное. М.:Наука1978.С.5-6.
42. Суперанская А.В. Ударение в собственных именах современном русском языке.–М.:Наука,1966.
43. Суперанская А.В. Структура имени собственного. Фонология и морфология. – М.: Наука, 1969.
44. Топоров В.Н.,Трубачёв О.Н. Лингвистический анализ гидронимов Верховного Поднепровья / Отв.ред. Толстой .И М.: Изд-во АН СССР,1962.С.159-172.
45. Uluqov N.M. Faleronimlar xususida.O‘zbek tili va adabiyoti. 2011. №5.- В.79-82.
46. Вамбери Г. Путешествие по Средней Азии. – СПб.: 1865.
47. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma sakkiz yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida»gi qarori // Xalq so‘zi, 2019, 9.07. – В.1.6
48. O‘zbek tili atamashunosligi//Axborot 13-14 chiqaruv.T.:Fan,2002.-В. 11
49. O‘zbek tili grammatikasi. 1- jild. Toshkent, 1974.
50. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1- jild. – Toshkent: O‘zbek milliy ensiklopediyasi, 2006.
51. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2- jild. – Toshkent: O‘zbek milliy ensiklopediyasi, 2006.

52. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 3- jild. – Toshkent: O‘zbek milliy ensiklopediyasi, 2006.
53. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4- jild. – Toshkent: O‘zbek milliy ensiklopediyasi, 2008.
54. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5- jild. – Toshkent: O‘zbek milliy ensiklopediyasi, 2008.
55. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat mukofotlari” to‘g‘risidagi qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. Toshkent shahri, 2018-yil 11-aprel № O‘RQ – 473.
56. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat mukofotlari va geraldika bo‘yicha komissiya faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi” qarori. Toshkent, 2017, PQ -3119-son.
57. “O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi idoralari xodimlarining darajali maxsus unvonlari to‘g‘risidagi nizomni va O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi idoralari xodimlarini rag‘batlantirish va ularning intizomiy javobgarligi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” O‘zbekiston Respublikasi Oliy kengashining qarori. 1992-y, 9-dekabr 748-XII –son.
58. Гафуров А. Имя и история. – М.:1987.
59. G‘ulomov X. CHil so‘zining qo‘llanishi va ma’nolari. O‘zbek shevalari leksikasi. – Toshkent, 1966.
60. SHoabdurahmanov Sh. “O‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari”. – Toshkent, 1962.
61. SHoabdurahmonov Sh., Ishaev A. O‘zbek shevalaridagi bir fonetik hodisa // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1969.

Internet saytlari.

1. lex.uz
2. www.ziyo.uz
3. viki.uz
4. mfa.uz
5. xs.uz